

# YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 235 (1024), 2023-yil 11-noyabr, shanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



## O‘ZBEKISTON – ITALIYA: IKKI TOMONLAMA STRATEGIK SHERIKLIK VA USTUVOR YO‘NALISHLARDAGI KO‘P QIRRALI MUNOSABATLAR YANADA KENGAYTIRILADI

10-noyabr kuni “Ko‘ksaroy” qarorgohida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev taklifiga binoan mamlakatimizda rasmiy tashrif bilan bo‘lib turgan Italiya Respublikasi Prezidenti Serjo Mattarellani rasmiy kutib olish marosimi bo‘lib o‘tdi.



Qarorgoh oldidagi maydonda faxriy qorovul saf tortdi.

Italiya Prezidenti va uning qizi — mamlakat birinchi ledisini O‘zbekiston Prezidenti va rafiqasi samimiy qarshi oldilar.

Harbiy orkestr ikki davlat madhiyalarini ijro etdi.

Davlat rahbarlari faxriy qorovul safi oldidan o‘tib, rasmiy delegatsiyalar a‘zolarini qutladilar.

Shundan so‘ng O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Italiya Respublikasi Prezidenti Serjo Mattarella “Ko‘ksaroy” qarorgohida ikki tomonlama muzokara o‘tkazdilar.

Uchrashuv avvalida davlatimiz rahbari oliy martabali mehmonni samimiy qutlab, Italiya Prezidentining ushbu tashrif ikki tomonlama munosabatlari rivojida muhim voqea ekanini ta‘kidladi.

Serjo Mattarella O‘zbekiston yetakchisiga taklif hamda Italiya delegatsiyasiga ko‘rsatilayotgan mehmondo‘stlik uchun dildan minnatdorlik bildirdi.

Italiya Prezidenti Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ortga qaytmas islohotlarni qat’iy

qo‘llab-quvvatlashini alohida ta‘kidladi hamda mamlakatimizning Markaziy Osiyoda barqarorlikni ta‘minlash va integratsiyalashuvni kuchaytirish borasidagi sa‘y-harakatlarini yuksak baholadi.

Ikki tomonlama strategik sheriklikni va ustuvor yo‘nalishlardagi ko‘p qirrali munosabatlarni yanada kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

O‘zbekiston Prezidenti joriy yil iyun oyida Italiyaga amalga oshirgan rasmiy tashrif davomida erishilgan kelishuvlarni amalga oshirishga alohida e‘tibor qaratildi.

Davlat rahbarlari parlamentlar va tashqi siyosiy idoralar o‘rtasidagi faol muloqotlarni davom ettirish muhim ekanini aytdilar.

Kelgusi yilda tashqi siyosiy idoralar rahbarlari darajasidagi Strategik muloqotning birinchi yig‘ilishini o‘tkazishga kelishib olindi.

“Markaziy Osiyo — Italiya” muloqoti doirasida ham faol aloqalar davom ettirildi.

Iqtisodiy hamkorlik sohasida joriy yil boshidan o‘zaro tovar ayirboshlash 30

foizga oshdi. Qo‘shma loyihalar portfeli 9 milliard yevroni tashkil etdi.

Savdo munosabatlarini yanada rivojlantirish maqsadida Savdogo ko‘maklashish kompleks dasturini ishlab chiqish taklif qilindi.

Italiyaning yetakchi kompaniyalari bilan metallurgiya, energetika, elektrotexnika, qishloq xo‘jaligi va boshqa tarmoqlarda muvaffaqiyatli kooperatsiya qilinayotgani qayd etildi.

Mamlakatimiz milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish loyihalarida Italiyaning ilg‘or va yuqori texnologik kompaniyalarini jalb qilishdan manfaatdor ekanini bildirdi.

Tomonlar Toshkent shahrida sanoat kooperatsiyasini chuqurlashtirishga xizmat qiladigan “Konfidiyariya O‘zbekiston” sanoatchilar uyushmasi ochilganini olqishladilar.

Hukumatlararo guruh doirasida mahalliyashtirishning yangi yo‘nalishlari va loyihalari bilan takliflar tayyorlashga kelishib olindi.

Italiya O‘zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga tez fursatda kirishini hamda Yevropa Ittifoqi bilan kengaytirilgan

sheriklik to‘g‘risidagi bitimning qabul qilinishi qo‘llab-quvvatlashga tayyorligi bildirildi.

Ikki mamlakat hududlari o‘rtasidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqalarni rag‘batlantirish muhimligi qayd etildi. Shu munosabat bilan O‘zbekiston va Italiya hududlari forumini ta‘sis etish va uning ilk uchrashuvini kelgusi yili Samarqandda o‘tkazish taklif qilindi.

Bundan tashqari, madaniy-gumanitar hamkorlikni rivojlantirish istiqbollari atroflicha muhokama qilindi.

Toshkentdagi Turin politexnika universiteti filialining faoliyati bu boradagi muvaffaqiyatli sheriklikka misol ekani qayd etildi.

Ushbu yetakchi oliy ta‘lim dargohi negizida Italiyaning ilg‘or texnologiyalari transferi markazi tashkil etiladi.

O‘zbekistonda italyan tilini o‘rganishga qiziqish o‘sb borayotgani mamnuniyat bilan ta‘kidlandi. Maktablarimizda italyan tili o‘qituvchilarini tayyorlash va maktablarimizda uni o‘qitishni bosqichma-bosqich joriy qilish muhimligi haqida yakdill fikr bildirildi.

Shuningdek, Italiyada qo‘shma tasviriy san‘at ko‘rgazmalarini o‘tkazish rejalarini muhokama qilindi.

Xalqlarimiz bir-birining boy va betakror madaniy-tarixiy merosi bilan tanishishi uchun mamlakatlarimizda O‘zbekiston va Italiya madaniyat, kino va turizm kunlari o‘tkazildi.

Samarqand arxeologiya instituti hamda Bolonya va Neapol universitetlarining qo‘shma guruhi tomonidan olib borilayotgan arxeologiya izlanishlari yuksak baholandi.

Davlat rahbarlari akademik almashinuvlarni kengaytirish hamda qo‘shma Ta‘lim forumini o‘tkazish zarurligini alohida ta‘kidladilar.

Xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar, xavfsizlikka umumiy tahdid va xatarlarga qarshi kurashishdagi hamkorlikni davom ettirish yuzasidan ham fikr almashildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Italiya Respublikasi Prezidenti Serjo Mattarellaning muzokaralari yakunida ikki mamlakat o‘rtasidagi strategik sheriklik va ko‘p qirrali hamkorlik munosabatlarini yanada rivojlantirishga qaratilgan Qo‘shma bayonot qabul qilindi.

Davlat rahbarlari huzurida Diplomatiya pasport egalarini viza tartib-taomillaridan ozod etish to‘g‘risida

Hukumatlararo bitim hamda ta‘lim, fan, texnologiya va innovatsiyalar, sport so-

hasida hamkorlik qilish to‘g‘risida kelishuvlar imzolandi.

O‘zbekiston — Italiya sammiti dasturi doirasida Prezident Shavkat Mirziyoyev va Prezident Serjo Mattarella daraxt ekish marosimida ishtirok etdilar.

“Ko‘ksaroy” qarorgohidagi Faxriy mehmonlar xiyobonida davlat rahbarlari birgalikda archa ekdilar. Bu xalqlarimiz o‘rtasidagi an‘anaviy do‘stlik munosabatlarini mustahkamlab, O‘zbekiston va Italiyaning ko‘p qirrali hamkorligi va strategik sherikligi kengayib borayotganining ramzi bo‘ladi.

Italiya Respublikasi Prezidenti Serjo Mattarella O‘zbekiston Bosh vaziri Abdulla Aripov hamrohligida “Yangi O‘zbekiston” bog‘iga tashrif buyurdi.

Bu yerda oliy martabali mehmon Mustaqillik monumenti poyiga gul qo‘ydi.

Uch ming yildan ziyod davr — ona Vatanimiz hududidagi milliy davlatchilik tarixi ildizlari shu qadar teran. Monumentga e‘tibor qaratgan kishi mana shu zalvorli o‘tmishning badiiy ifodasi-guvoh bo‘ladi. Mehmonga majmuda ifodalangan ana shu tarix, uning mazmuni haqida so‘zlab berildi.

Oliy martabali mehmonlar, rasmiy xorijiy delegatsiyalarning mamlakatimizga tashrif doirasida bu yerdagi monumengga gul qo‘yish an‘anaga aylangan.

Delegatsiya a‘zolari majmuda aks ettirilgan allomalar, buyuk sarkarda va jahongirlar, jaded bobolarimizning siymolariga alohida e‘tibor qaratdi. Tinchlik, erkinlik, ezgulik timsoli bo‘lgan Humo qushi tasviri majmuaning bami-soli gultojiday ko‘rinishi e‘tirof etildi.

Oliy martabali mehmon Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti faoliyati bilan ham tanishdi.

Ushbu oliy ta‘lim muassasasi Italiyaning Turin politexnika universiteti bilan hamkorlikda tashkil etilganiga o‘n to‘rt yil bo‘lmoqda. Muassasada o‘tgan davrda avtomobilsozlik, energetika sanoati, arxitektura kabi sohalariga ko‘plab malakali kadrlar tayyorlandi.

Ta‘lim tizimidagi bunday yutuq qayd etilishining asosiy omillardan biri O‘zbekiston va Italiya o‘quv dasturlari orasidagi tafovutlar uyg‘unlashtirilganidir. Shuningdek, ta‘lim jarayoniga zamonaviy metodlar tatbiq etilganida deiysh mumkin.

Italiya Respublikasi Prezidenti Serjo Mattarellaga keyingi yillarda mamlakatimiz ta‘lim tizimida amalga oshi-

rilayotgan islohotlar, erishilayotgan natijalar haqida ma‘lumot berildi.

Ayni paytda yerda 2 ming nafardan ortiq yoshlar ta‘lim olmoqda. Bitiruvchilar bir paytning o‘zida ikkita — Italiyaning Turin politexnika universiteti va Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti diplomiga ega bo‘ladi.

Shu o‘rinda Italiyaning Turin politexnika universiteti haqida qisqacha ma‘lumot keltirib o‘tamiz. Ushbu ta‘lim muassasasi 1859-yil tashkil etilgan. U Yevropaning eng ilg‘or texnika universitetlaridan biri sanaladi. Ta‘lim jarayoni ilmiy va amaliy tadqiqot bilan faol ravishda birga olib borilishi bilan ajralib turadi. U o‘n sakkiz fakultet va ko‘plab yirik avtomobil hamda boshqa korxonalar uchun asosiy ilmiy-tadqiqot markazi bo‘lgan laboratoriyalarni o‘z ichiga oladi.

Poytaxtimizdagi Turin politexnika universiteti mana shunday tarixiy rivojlanish bosqichlariga ega muassasa bilan doimiy hamkorlik qiladi.

O‘zbekistonda xalqaro e‘tirofdagi, zamonaviy talablariga mos keluvchi ta‘lim dargohining ochilgani ko‘plab yoshlarimizning tegishli sohalarda o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishda muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda mazkur universitetni rivojlantirish bo‘yicha tegishli strategiya ishlab chiqilgan. U bo‘yicha kelgusida yangi ta‘lim yo‘nalishlarini ochish, talabalar qabulini ko‘paytirish rejalashtirilgan. Avtomobilsozlik, qurilish va energetika sanoatida zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega malakali kadrlarni tayyorlash maqsadida jahonning yetakchi oliy ta‘lim muassasalari bilan hamkorlikda qo‘shimcha fakultetlar tashkil etiladi.

Ta‘lim tizimida olib borilayotgan islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish har qachongidan ham muhimligi haqida fikrlar bildirildi.

Oliy martabali mehmon shu kuni tashrif dasturi doirasida Samarqand shahriga keldi.

Italiya Respublikasi Prezidenti Serjo Mattarellaning mamlakatimizga rasmiy tashrif davom etmoqda.

Ziyodulla JONIBEKOV,  
Ikrom AVVALBOYEV,  
O‘za muxbirlari

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

## O‘ZBEKISTON SOG‘LIQNI SAQLASH SOHASI XODIMLARIGA

Hurmatli tibbiyot xodimlari!

Avvalo, o‘z hayotini el-yurt salomatligini asrashdek olib borishga bag‘ishlab kelayotgan siz, azizlarni qutlug‘ kasb bayramingiz — Tibbiyot xodimlari kuni bilan samimiy muborakbod etaman.

Biz Yangi O‘zbekistonda inson qadri va manfaatlarini ta‘minlashni o‘z oldimizga ezgu maqsad qilib qo‘ygan ekanimiz, bu yo‘lda xalqimiz salomatligini mustahkamlash eng muhim vazifalarimizdan biri bo‘lishi tabiiydir.

Ayni shu maqsadda keyingi yillarda O‘zbekiston sog‘liqni saqlash tizimi tubdan isloh qilinmoqda. Sohaning moddiy-texnik bazasi, kadrlar salohiyati mustahkamlanmoqda. Tizimga ilg‘or davolash va diagnostika usullari, innovatsion texnologiyalar keng tatbiq etilmoqda.

Ana shunday sa‘y-harakatlarimiz tufayli birlamchi va malakali tibbiy xizmatlar aholining keng qatlamlariga kirib bormoqda. Buning tasdig‘ini shu yilning o‘zida joylarda 22 ta oilaviy poliklinika,

93 ta oilaviy shifokorlik punkti va 394 ta mahalla tibbiyot punkti tashkil etilib, birlamchi tibbiy xizmatlar 2 million 100 ming nafardan ziyod aholiga yaqinlashtirilgani misolida yaqqol ko‘rish mumkin.

Bu haqda so‘z yuritganda, 8 million 600 ming nafar aholi profilaktik tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilib, ularning 685 ming nafari ambulator, 72 ming nafari esa stasionar sharoitda sog‘lomlashtirilgani, skrining tekshiruvlari orqali 167 ming nafar yurtdoshimizda yurak-qon tomir, 52 ming nafarida qandil diabet kasalligi aniqlanib, ularning salomatligini tiklash choralari ko‘rilganini ta‘kidlash lozim.

Ayniqsa, tug‘ma yurak nuqsoni bo‘lgan 2 ming nafar bolaning davlat hisobidan operatsiya qilinishi yosh avlodga mehr va g‘amxo‘rlik ko‘rsatishning yana bir yorqin namunasini ko‘rdik.

Sohaga davlat tibbiy sug‘urtasi va raqamlashtirish mexanizmlari bilan birga xususiy tibbiyot muassasalari faoliyati ham keng joriy etilmoqda. Shifoxonalarni zamonaviy transport va tibbiy jihozlar bilan ta‘minlash darajasi keskin yaxshilanmoqda.

Aynan ana shunday o‘zgarishlar, jonkuyar shifokorlar, yuqori malakali tibbiyot mutaxassislari, hamshiralarning mashaqqatli mehnati tufayli yuqori texnologik jarrohlik operatsiyalari nafaqat poytaxtimiz va viloyatlar markazlarida, balki tumanlarda ham muvaffaqiyatli o‘tkazilmoqda va minglab bemorlar o‘z dardiga shifo topmoqda.

Soha xodimlari mehnatini rag‘batlantirish, ish haqini oshirish doimo e‘tiborimiz markazida bo‘lib kelmoqda. So‘nggi 7 yilda ushbu tizimda samarali xizmat qilib kelayotgan yurtdoshlarimizdan 727 nafari Vatanimizning faxriy unvon, orden va medallari bilan taqdirlandi.

Bugungi bayram munosabati bilan ularning safiga yana ko‘plab tibbiyot xodimlari qo‘shilganini alohida qayd etmoqchiman. Fursatdan foydalanib, ushbu fidoyi yurtdoshlarimizni yuksak mukofotlar bilan taqdirlab, barchasiga o‘zimning chuqur hurmatim va ezgu tilaklarimni bildiraman.

Aziz do‘stlar! Biz “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi doirasida tibbiyot sohasida ham ulkan o‘zgarishlarni amalga oshirishni reja qilganmiz. Jumladan, aholining o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligini 78 yoshga yetkazish, buning uchun tibbiyotga yo‘naltiriladigan mablag‘lar hajmini 2 barobar oshirish, onkologiya, yurak-qon tomir, diabet va nafas yo‘llari kasalliklari bo‘yicha erta o‘limni 2,5 barobar kamaytirish, O‘zbekistonni sil xastaligidan xoli mamlakatga aylantirish ustuvor vazifamiz bo‘ladi.

Shuningdek, 350 ming nafar diabet va 1 million 500 ming nafar yurak-qon tomir kasalligi bilan og‘riqan bemorlar-

ni davolash, tibbiy yordamga muhtoj aholining 70 foiz murojaatlarini birlamchi bo‘g‘inning o‘zida hal etish, bemorlarni gemodializ o‘rinlari bilan to‘liq qamrab olish bo‘yicha ham amaliy ishlarni boshlaymiz.

Aholi o‘rtasida mustahkam salomatlik garovi bo‘lgan sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga ham alohida e‘tibor qaratiladi.

Qadrili tibbiyot xodimlari! Barchamiz birgalikda harakat qilib, tibbiyot sohasini chinakam xalqchil tizimga aylantirish bo‘yicha oldimizda turgan ulkan vazifalarni albatta muvaffaqiyatli ado etamiz.

O‘z qasamyodiga, kasbi va burchiga sadoqat bilan mehnat qilayotgan, Abu Ali ibn Sinoдек buyuk ajdodlarimiz an‘analarning davomchilari bo‘lgan siz, azizlar bundan buyon ham shu ezgu yo‘lda bor bilim va tajribangizni safarbar etasiz, deb ishonaman.

Sizlarni Tibbiyot xodimlari kuni bilan yana bir bor chin dildan taqdirlab, g‘oyat sharafli va mas‘uliyatli faoliyat-ingizda sihat-salomatlik, yutuq va omadlar, oilaviy baxt-saodat tilayman.

Shavkat MIRZIYOYEV,  
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

## O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining FARMONI

### TIBBIYOT XODIMLARI KUNI MUNOSABATI BILAN SOHA XODIMLARIDAN BIR GURUHINI MUKOFOTLASH TO‘G‘RISIDA

Mamlakatimizda sog‘liqni saqlash tizimini xalqaro standartlar asosida rivojlantirish, tibbiy xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish, aholi salomatligini ishonchli muhofaza qilish borasidagi ko‘p yillik samarali mehnati, sohani tubdan isloh etishga qaratilgan dasturlar ijrosini muvaffaqiyatli ta‘minlash, zamonaviy davolash usullarini amaliyotga keng tatbiq etish, jamiyatda sog‘lom turmush tarzini mustahkamlashga qo‘shgan munosib hissasi, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash yo‘lidagi katta xizmatlari hamda ijtimoiy hayotdagi faol ishtiroki uchun quyidagilar faxriy unvon, orden va medallar bilan mukofotlansin:

“O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan sog‘liqni saqlash xodimi” faxriy unvoni bilan

Azizov Sabit Kurbanovich — Respublika ixtisoslashtirilgan nefrologiya va buyrak transplantatsiyasi ilmiy-amaliy tibbiyot markazining 1-gemodializ bo‘limi mudiri  
Nuraliyeva Gulnoza Sagdullayeva — Respublika maxsus 1-Zangiota shifoxonasi bosh pediatri





www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news

# O'zbekiston Respublikasi Prezidentining F A R M O N I TIBBIYOT XODIMLARI KUNI MUNOSABATI BILAN SOHA XODIMLARIDAN BIR GURUHINI MUKOFOTLASH TO'G'RSIDA

Boshlanishi 1-betda

## "Mehnat shuhrati" ordeni bilan

**Maxmudova Sanobar Yusupovna** — Paxtachi tumani tibbiyot birlashmasining tug'urug bo'limi akusher-ginekologi, Samarqand viloyati  
**Shek Aleksandr Borisovich** — Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining yurak ishemik kasalliklari laboratoriyasi mudiri

## I darajali "Sog'lom avlod uchun" ordeni bilan

**Mamanazarov Kurban Mamarajabovich** — Toshkent tibbiyot akademiyasining Termiz filiali travmatologiya, ortopediya, xalq tabobati jarrohligi, neyrojarrohlik, anesteziologiya va tez tibbiy yordam kafedrasini assistenti, Surxondaryo viloyati  
**Eminov Baxodir Jo'rayevich** — Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazining Farg'ona filiali bolalar reanimatsiyasi bo'limi anesteziolog-reanimatologi, Farg'ona viloyati

## II darajali "Sog'lom avlod uchun" ordeni bilan

**Jabbarov Ashir Norqobilovich** — Qamashi tumani tibbiyot birlashmasining "Chim" filiali shifoxonasi rahbari, Qashqadaryo viloyati  
**Qosimova Dinoraxon Siddiqovna** — Chortoq tumani tibbiyot birlashmasining bolalar bo'limi mudiri, Namangan viloyati  
**Mo'yidinova Dilbarxon Usarboevna** — Buloqbochi tumani "Mayari" oilaviy shifokorlik punkti hamshirasi, Andijon viloyati  
**Xujayev Nuriddin Xurramovich** — Jomboy tumani tibbiyot birlashmasining bolalar bo'limi mudiri, Samarqand viloyati

## II darajali "Salomatlik" ordeni bilan

**Aliyev Sherzod Maxmudjanovich** — Akademik V.Vohidov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining kattalar kardiokirurgiyasi bo'limi mudiri  
**Axmudaliyeva Xurshida Muxamadaliyevna** — Oqoltin tumani tibbiyot birlashmasining terapiya bo'limi mudiri, Sirdaryo viloyati  
**Bobokeldiyeva Xamida Ergasheva** — Jizzax viloyati yuqumli kasalliklar shifoxonasining boks-brutsellyoz bo'limi mudiri  
**Yernazarov Oralbay** — Mo'ynoq tumani tibbiyot birlashmasining shoshilinch qabul bo'limi terapeviti, Qoraqalpog'iston Respublikasi

**Karimov Murodulla Yuldashevich** — Toshkent tibbiyot akademiyasining travmatologiya, ortopediya va harbiy dala jarrohligi kafedrasini mudiri

**Molayxanov Rustam Xudayberganovich** — Toshkent shahridagi 4-klinik shifoxonasining jarrohlik bo'limi shifokori

**Nurillayeva Marifat Tag'ayevna** — Navoiy viloyati endokrinologiya dispanseri endokrinologi

**Ro'ziyeva Aziza Komunarovna** — Olot tumani ko'p tarmoqli markaziy poliklinikasi kardiologi, Buxoro viloyati

**Salomova Ra'no Xayrullayevna** — Bo'ka tumanidagi 10-oilaviy poliklinikasi oilaviy shifokori, Toshkent viloyati

**Tajiyeva Nargiza O'rinboevna** — Qo'shko'pir tumani ko'p tarmoqli poliklinikasi patronaj hamshirasi, Xorazm viloyati

**Tojiboyev Akmalxon Abduraxmanovich** — Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining Namangan filiali jarrohlik bo'limi mudiri, Namangan viloyati

**Tojiev Shomurod Musurmonovich** — Yakkabog' tumani tibbiyot birlashmasining jarrohlik bo'limi mudiri, Qashqadaryo viloyati

**To'xtayev Tojiddin Parpiyevich** — Oltinko'l tumani tibbiyot birlashmasi bosh feldsheri, Andijon viloyati

## "Do'stlik" ordeni bilan

**Berdiyev Axmad Niyozmaxmadovich** — Sariosiyo tumani "Guliston" oilaviy shifokorlik punkting "Karsh" tog'li hududi patronaj feldsheri, Surxondaryo viloyati

**Jumanazarova Asilxon Dovulbayevna** — Yangiqo'rg'on tumani tibbiyot birlashmasining "Nanay" hududiy bo'limi bolalar shifokori, Namangan viloyati

**Malkova Yelena Mixaylovna** — "O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyatining Sog'liqni saqlash xizmati markaziy poliklinikasi tibbiy punkti terapeviti

**Orazaliyev Bazarbay Xaitbayevich** — Beruniy tumani tibbiyot birlashmasining jarrohlik bo'limi jarrohi, Qoraqalpog'iston Respublikasi

**Rainjanov Abdulaziz Abduxafizovich** — Farg'ona shahridagi "ASAF Medical" mas'uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Farg'ona viloyati

**Tashpanbetova Kaljan Kaidibayevna** — Konimex tumani "Sarjal" oilaviy shifokorlik punkti oilaviy shifokori, Navoiy viloyati

## O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Toshkent shahri,  
2023-yil 10-noyabr

## "Sog'lom turmush" medali bilan

**Akbutayeva Dilfuza Abdumannapovna** — Respublika bolalar kam invaziv va endovizual xirurgiya ilmiy-amaliy markazi katta hamshirasi

**Karimov Xusan Raimberdiyevich** — Respublika tez tibbiy yordam markazining Sirdaryo viloyati filiali haydovchisi

**Mustanov Abdusamat Norsaatovich** — O'zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasining Surxondaryo viloyati boshqarmasi boshlig'i

**Nasriyeva Muhabbat Djo'rayevna** — Buxoro tumanidagi 3-oilaviy poliklinikasi katta hamshirasi, Buxoro viloyati

**Raxmatullayeva Maxbuba Latifovna** — Yangiyo'l tumani 72-oilaviy poliklinikasi umumiy amaliyot shifokori, Toshkent viloyati

## "Shuhrat" medali bilan

**Atajanova Zamira Nurullayevna** — Elikqal'a tumani tibbiyot birlashmasining anesteziologiya va reanimatsiya bo'limi katta hamshirasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi

**Kuranbayev Rustam Alimovich** — Respublika tez tibbiy yordam markazining Xorazm viloyati filiali Urganch tumani bo'limi feldsheri

**Maxamadaminova Shoira Abduvaliyevna** — Yunusobod tumani "Otolaringolog" xususiy klinikasi otolaringologi, Toshkent shahri

**Mo'minova Adolat Xolmatovna** — Zomin tumani "Muruvvat" nogironligi bo'lgan shaxslar uchun ayollar internat uyi hamshirasi, Jizzax viloyati

**Ravshanov Sobir Kenjayevich** — Respublika tez tibbiy yordam markazining Samarqand viloyati filiali Narpay tumani bo'limi haydovchisi

**Tojiboyeva Salomatxon Davranboyevna** — Izboskan tumani "Muruvvat" nogironligi bo'lgan shaxslar uchun ayollar internat uyi hamshirasi, Andijon viloyati

**Ermatov Abdumalik Abduraximovich** — Furqat tumani tibbiyot birlashmasining travmatologiya punkti travmatologi, Farg'ona viloyati

**Yakubov Raxim Kamilovich** — Toshkent davlat stomatologiya institutining bolalar yuz-jag' jarrohligi kafedrasini professori

## SH. MIRZIYOYEV

# ITALIYA PREZIDENTI O'Z TASHRIFI BILAN MARKAZIY OSIYOGA DARVOZA BO'LGAN O'ZBEKISTONGA ALOHIDA E'TIBOR QARATMOQDA

Italiya ommaviy axborot vositalari  
Prezident Serjo Mattarellaning O'zbekistonga  
rasmiiy tashrifini keng yoritmoqda

Italiyaning eng qadimiy nashrlaridan biri — "Il Giornale d'Italia" gazetasi 9-noyabr kuni Italiya Prezidentining O'zbekistonga rasmiiy tashrifi boshlangani haqida yozdi. Unda O'zbekiston Prezidenti bilan ikki tomonlama muzokaralar, shuningdek, Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti filiali faoliyati bilan tanishuvni o'z ichiga olgan tashrif dasturi taqdim etilgan. Shuningdek, Italiya Prezidenti Samarqand va Xiva shaharlarida bo'lib, O'zbekistonning madaniy-tarixiy merosi bilan tanishishi haqidagi ma'lumotlar mushtriyalar e'tiboriga havola qilingan.

Nashrdagi O'zbekistonning Lombardiya va Li-guriyadagi faxriy konsuli Massimo Pollio bilan O'zbekiston va Italiya o'rtasidagi hamkorlikning holati va istiqbolari, mamlakatimiz salohiyati hamda sayohat imkoniyatlariga bag'ishlangan batafsil intervyu bosilgan.

Ushbu mamlakatdagi yetakchi "Agenzia Nova" axborot agentligining "Nova News" onlayn nashri Italiya Respublikasi rahbarining O'zbekistonga tashrifi doirasida imzolashni rejalashtirilgan hujjatlar to'plami to'g'risidagi maqolani e'lon qildi.

"Serjo Mattarella Oskar Luidji Skalfaro tashrifi doirasida imzolashni rejalashtirilgan hujjatlar to'plami to'g'risidagi maqolani e'lon qildi. "Serjo Mattarella Oskar Luidji Skalfaro tashrifi doirasida imzolashni rejalashtirilgan hujjatlar to'plami to'g'risidagi maqolani e'lon qildi. "Serjo Mattarella Oskar Luidji Skalfaro tashrifi doirasida imzolashni rejalashtirilgan hujjatlar to'plami to'g'risidagi maqolani e'lon qildi.

Maqolada Serjo Mattarellaning tashrifi joriy yilning iyun oyida Strategik sheriklik munosabatlarini o'rnatish to'g'risidagi qo'shma deklaratsiya-ning qabul qilinishi natijasida tubdan o'zgargan Italiya va O'zbekiston aloqalariga yanada turki berishi ta'kidlangan. Bu siyosiy, savdo-iqtisodiy, harbiy, madaniy va turizm sohaslarida hamkorlikni mustahkamlashni, shuningdek, ikki yilda bir marta tashqi ishlar vazirlari yoki ularning o'rinbosarlari hamraisigida ikki tomonlama munosabatlar, shuningdek, o'zaro manfaatli global va mintaqaviy muammolarni muhokama qilish uchun strategik muloqot o'rnatishni nazarda tutadi.

"2022-yilda Italiya Markaziy Osiyodagi ushbu davlatning Yevropadagi ikkinchi savdo sheri bo'ldi. Ikki mamlakat o'rtasidagi o'zaro savdo hajmi 535 million yevrodan oshdi, bu o'tgan yildagiga nisbatan 32 foiz ko'p. Avvalgi yilda ushbu ko'rsatkich 400 million dollardan sal ko'proqni tashkil qilgan", deyiladi maqolada.

Ta'kidlanishicha, Italiya O'zbekiston bilan aloqalarni mustahkamlash orqali Markaziy Osiyo mintaqasiga e'tiborni kuchaytiradi.

Italiyaning yetakchi "Giornale Diplomatico" onlayn gazetasi "O'zbekiston: Prezident Mattarellaning tashrifi o'zaro munosabatlardagi yangi qadam" sarlavhali maqola e'lon qilindi.

O'zbekistonning Florensiyadagi faxriy konsuli Leonardo Komuchchi qalamiga mansub maqolada tashrifning ahamiyati va Markaziy Osiyo davlatining roli ta'kidlangan.

Muallif Prezident Shavkat Mirziyoyevning joriy yil iyun oyida Rim va Milanga tashrifi, oliy darajadagi siyosiy va ishblarmonlik uchrashuvlari, shuningdek, strategik sheriklik to'g'risidagi bitim imzolanganidan so'ng O'zbekiston Italiyaning yaqin hamkorlaridan biriga aylanganini alohida qayd etgan. Prezident Serjo Mattarella o'z tashrifi bilan Markaziy Osiyoga darvoza bo'lgan ushbu davlatga alohida e'tibor qaratmoqda, deyiladi maqolada.

"O'zbekiston, albatta, italyan kompaniyalari uchun juda qiziq va muhim bozor. Mamlakatda 35 milliondan ortiq aholi istiqomat qiladi, 2035-yilga kelib, ularning soni 50 millionga yetishi mumkin. Mamlakat aholisining asosini yoshlar tashkil qiladi. O'zbekiston iqtisodiyoti jadal o'sib bormoqda. Bu davlat, shuningdek, siyosiy jihatdan ham barqaror. Bu Shavkat Mirziyoyev iqtisodiy sohada ham, fuqarolik huquqlari sohasida ham islohotlarni oqilona boshlagan va muvaffaqiyatli odimlayotgan prezidentlik respublikasidir", deb ta'kidlagan faxriy konsul.

Leonardo Komuchchi, shuningdek, Italiya Yevrosiyo mintaqasida, ayniqsa, dunyoning boshqa mintaqalariga nisbatan barqarorlikni, shuningdek, iqtisodiy nuqtayi nazardan dinamiklikni ko'rsatayotgan O'zbekistonda tobora ko'proq ishtirok etishi kerak, degan fikrni ilgari surgan. "Mamlakatda amalga oshirilayotgan yirik qonunchilik o'zgarishlarining hayotga muvaffaqiyatli tatbiq etilishi natijasida yuzaga kelgan xavfsizlik investitsiya va sanoatni rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytirmoqda", deb yozgan u.

## "Dunyo" AA

Rim

## Italiya elchisi Agostino Pinna:

# UMUMIY ALOQALARIMIZ UZOQ TARIXDAN BUGUNGI AMALIY HARAKATLARGA KO'CHMOQDA

Italiya Prezidenti Serjo Mattarellaning O'zbekistonga tashrifi arafasida  
"Dunyo" AA muxbiri ushbu mamlakat elchisi Agostino Pinna bilan suhbatlashdi.

— Janob elchi, bilimizki joriy yilning 7-9-iyun kunlari Italiya O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tarixiy tashrifi amalga oshirilgan edi. Siz Italiya rahbarining O'zbekistonga javob tashrifidan nimalarni kutaysiz?

— O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Italiyaga tashrifi juda samarali bo'lgan edi. Tashrif davomida muhim shartnomalar imzolandi. Eng asosiy, mamlakatlarimiz o'rtasida Strategik sheriklik munosabatlarini o'rnatish to'g'risidagi qo'shma deklaratsiya imzolangan bo'ldi. Bundan tashqari, 11 ta muhim hujjatning imzolashini, tashrif doirasida biznes forum o'tkazilishi ham alohida ahamiyat kasb etdi.

Hamkorlik aloqalari kuchayib borayotgani va samarali natijalarga erishayotganimiz o'zaro tashriflarga yo'l ochmoqda. Shu o'rinda O'zbekistonning tobora oshib borayotgan mavqei mamlakatimizni Italiya uchun yanada muhim davlatga aylantirmoqda. Shuningdek, biz O'zbekistonda investorlarimiz, kompaniyalarimiz uchun keng imkoniyatlarni ko'ryapmiz. Ayni paytda O'zbekistonda barqarorlik, tinchlikni ta'minlovchi, xalqaro munosabatlarda ana shu qadriyatlarini doimo qo'llab-quvvatlab kelayotgan davlat sifatida yuksak qadrlaymiz.

— O'zbekiston — Italiya munosabatlarining bugungi holati va is-



tiqbollari haqidagi fikrlaringiz bilan o'rtoqlashsangiz. O'zaro hamkorlik salohiyatidan samarali foydalanish uchun nima qilish kerak, deb o'ylaysiz?

— Ha, o'rnatimizda munosabatlarni mustahkamlash uchun erishilgan hamkorlik darajasini saqlab qolish va yanada rivojlantirish zarur. Bugungi kunda savdo-iqtisodiy aloqalar jadal kengayib, o'zaro tovar ayirboshlash hajmi yildan-yilga oshib borayotganini ko'rib turibmiz. Bu mamlakatlarimiz o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalar yaxshi rivojlanayotganining yorqin dalilidir. Biz davlatlarimizning turli vazirlik va idoralari

o'rtasidagi doimiy aloqalarni yo'lga qo'yishimiz, o'zaro manfaatli loyihalarni muhokama qilishni kengaytirishimiz kerak. Mamlakatlarimiz o'rtasida imzolangan deklaratsiyaning maqsadlaridan biri ham strategik sheriklik va muloqotni yaratishdan iborat.

— O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar, mamlakatimizning zamonaviy rivojlanishi, bu yerda yaratilgan sarmoyaviy muhit, shuningdek, ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarni yanada rivojlantirish uchun ochilayotgan imkoniyatlarni qanday baholaysiz?

— O'zbekistonning farovonlik yo'lidan olg'a intilayotganini yuksak qadrlaymiz. O'tgan bir necha yil davomida islohotlar dasturining samaralarini kuzatdik va guvohi bo'ldik. Italiya Prezidenti Serjo Mattarellaning O'zbekistonga tashrifi mamlakatni yanada obod va taraqqiy etgan davlatga aylantirish yo'lidagi sa'y-harakatlarga yuksak baho berishimiz hamda unga bo'lgan qiziqishimizning tasdiqidir.

— O'zbekiston va Italiya o'rtasidagi hamkorlikning yangi yo'nalishlaridan biri bu — mamlakatimizda yangi qishloq xo'jaligi ekini — za'faron yetishtirish. Mazkur jabhadagi hamkorlik istiqbolini qanday baholaysiz?

— Men ham bu loyiha bilan yaqin-



dan tanishman. Ushbu loyiha yaxshi natijalar berayotgani va shu asosda kengayib borayotganini ko'ryapmiz. Demak, bu qishloq xo'jaligidagi hamkorlikning muvaffaqiyatli ekanligini belgisi. Hozirgi kunda ushbu sohada hamkorlikdagi yangi loyihalar muhokama qilinmoqda. Biz O'zbekistonda boradagi imkoniyatlarni kengligini yaxshi bilamiz. Sentabr oyida Samarqandda oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha bo'lib o'tgan xalqaro anjumanda Italiya qishloq xo'jaligi vaziri ishtirok etdi. Qishloq xo'jaligi sohasidagi hamkorlikni kengaytirish va shunga o'xshash yangi loyihalarni yo'lga qo'yish ustida muzokaralar qizg'in davom etmoqda.

— Iqtisodiy hamkorlikni yanada kengaytirishda yana qaysi istiqbolli yo'nalishlarni ta'kidlagan bo'lar edingiz?

— Avvalo, energiya sohasini aytishim mumkin. Neft va gaz sohasida Italiya texnologiyasi dunyodagi eng yaxshilardan biri. Demak, ushbu jabha ham hamkorlikning muhim yo'nalishlaridan biri bo'la oladi. Bundan tashqari, avtomobilsozlikda, qurilish, arxitektura, restavratsiya sohasida ham imkoniyatlar mavjud. Ularning ba'zilarida allaqachon Italiya kompaniyalari ishlamoqda. Shu o'rinda to'qimachilik ham muhim yo'nalish ekanini yodda tutish kerak.

— Ta'lim sohasidagi hamkorlikning holatini qanday baholaysiz?

"Dunyo" AA



# IQTISODIY BARQARORLIKKA ISHONCHLI HAMKORLIK ORQALI ERISHILADI

## IQTISODIY HAMKORLIK TASHKILOTINING TOSHKENTDA BO'LIB O'TGAN NAVBATDAGI SAMMITI ANA SHU MUNOSABATLARNI YANGI BOSQICHGA OLIB CHIQISHI BILAN MUHIM AHAMIYATGA EGA

Bugun dunyo turli qarama-qarshiliklar qarshisida turibdi. Murakkab geosiyosiy vaziyat yangi geoiqtisodiy muammolarni yuzaga chiqarmoqda. Bu holat Markaziy Osiyoning markazida joylashgan va nafaqat ushbu hudud, balki mintaq va dunyo iqtisodiyotida o'ziga xos o'ringa ega bo'lib borayotgan O'zbekiston uchun alohida ahamiyat kasb etadi.



Qalandar ABDURAHMONOV,  
akademik

Bino barin, keyingi yillarda Prezident Shavkat Mirziyoyevning qat'iy siyosiy irodasi hamda odilona tashabbuslari ana shunday ziddiyatli vaziyatlarni yumshatish, mamlakatlar o'rtasidagi do'stona aloqalar mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda. Bu xalqaro minbarlarda, turli xalqaro tadbir va uchrashuvlarda nufuzli shaxslar, davlat rahbarlari tomonidan yuksak ehtirom va hurmat bilan qayd etilmoqda. Uzoqqa bormaylik, 8-9-noyabr kunlari Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining poytaxtimiz mezbonlik qilgan o'n oltinchi sammitida ishtirokchi davlatlar rahbarlari tomonidan aytilgan fikrlar buning isboti.

Sammitda ko'tarilgan masalalar, bildirilgan fikr va mulohazalar, amaliy kelishuvlar, tashabbuslar faqatgina ushbu davlatlarga daxldor desak, to'g'ri bo'lmaydi. Zero, hozir dunyo integratsiyaga asoslangan, munosabatlari bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti sammitini Toshkent ilk marotaba qayd qilib olishining o'zi bir tarixiy voqea bo'lsa, uning mintaq iqtisodiyoti ravnaqiga qaratilgan mohiyati alohida hodisa bo'ldi.

Galdagi sammitga qiziqish ham, tayyorgarlik ham yuqori edi. Uning ahamiyati haqida tadbir boshlanmasdan oldin muhokamalar avj oldi. Mahalliy, tashkilot a'zosi bo'lgan mamlakatlar ommaviy axborot vositalari qatorida boshqa davlatlar nashrlari ham butun sahifalarini O'zbekistonga bag'ishlangan salmoqli, tahliiliy maqolalarga ajratdi. Jumladan, Janubiy Koreyaning "The Korea Post" jurnalida IHT bosh kotibi Xusrav Noziyriy bilan e'lon qilingan intervyuda bosh kotib IHTni yanada rivojlantirish istiqbollari va ushbu jarayonda O'zbekistonning ishtiroki xususida fikr yuritarkan, so'nggi yillarda mamlakatimizning mintaqaviy aloqalarini mustahkamlashda juda faol ekanini aytdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2022-yil IHT makonida "O'zaro bog'liqlikni mustahkamlash yili", deb e'lon qilingani ushbu munosabatlar mustahkamlanishida muhim omil bo'lganini ta'kidlagan.

### O'zbekiston — tashkilotning faol ishtirokchisi

Darhaqiqat, O'zbekiston IHTning faol va tashabbuskor mamlakatlaridan biriga aylandi. Aynan davlatimiz rahbari tashabbusi bilan tuzilma doirasida atrof-muhitni muhofaza qilish, biologik xilma-xillik, iqlim o'zgarishi kabi bir qator yo'nalishlarda ishlar yanada jadallashdi.

O'zbekiston IHT sammitlarida muntazam ishtirok etib keladi. Xususan, yaqin yillarda e'tibor qaratilgan bo'lsa, 2021-yildagi o'n beshinchi sammit yakunlari bo'yicha IHTga raislik ilk marotaba O'zbekistonga o'tdi.

Umuman, tashkilotning o'n beshinchi sammitida O'zbekiston tomonidan jami 8 ta dolzarb taklif va tashabbus ilgari surilib, ular boshqalar tomonidan to'liq qo'llab-quvvatlangani alohida e'tiborga loyiq. Hozirgi kunga qadar ushbu tashabbuslardan 5 tasi to'liq bajarilgan bo'lsa, 3 tasi bo'yicha amaliy choralar ko'rilmog'da. Ya'ni o'zaro sarmoyalar qilimini ko'paytirish va ularni ishonchli himoya qilish, sanoat kooperatsiyasini chuqurlashtirishga qaratilgan "Yo'l xaritasi" qayd qilingani, tashkilot ichida xalqaro ekolog olimlar va ekspertlar ishtirokida yuqori darajadagi doimiy muloqot kengashi tashkil

etilgani, xavfsiz sayyohlikni rivojlantirish bo'yicha umummintaqaviy dastur qabul qilinishi aynan davlatimiz rahbari sa'y-harakatlari samarasidir.

Shuningdek, mintaqada mavjud va yangi transport yo'laklaridan unumli foydalanish, mintaqalararo tranzit xabarlari tashkil etish, zamonaviy transport va yo'l infratuzilmalarini rivojlantirish ham O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlaridir.

Bugungi kunda O'zbekiston faol, pragmatik va ko'p tomonlama tashqi siyosat yuritmoqda. Mamlakatimiz tashqi siyosiy faoliyatining muhim yo'nalishi bu uning yaqin atrofidagi davlatlar, shuningdek, nufuzli xalqaro tuzilmalar bilan ko'p tomonlama hamkorlik qilishidir. Ularning ichida Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti alohida o'ringa ega.

Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti va O'zbekiston siyosati ana shu jihatlari bilan alohida ajralib turadi. Tahlillar jahondagi global inqirozga, geosiyosiy va geoiqtisodiy tebranishlarga qaramasdan, tashkilotga a'zo davlatlar iqtisodiyotida barqaror o'sish sur'atlarini ko'rsatayotgani uning O'zbekiston va mintaq iqtisodiyoti uchun nechog'liq ustuvor ahamiyatga ega ekanini anglatadi.

Tuzilmaning poytaxtimiz mezbonlik qilgan navbatdagi sammiti yuqori tashkilotchilik asosida o'tkazilganini aytib o'tdik. Lekin uning yakunida kelingan xulosalar hammasidan muhim. Zero, ko'tarilgan har bir masala va yo'nalish a'zo mamlakatlar istiqbolini, demakki, shu hududda istiqomat qilayotgan odamlar farovonligini ta'minlaydi.

### Iqtisodiyotga yo'naltirilgan kapital inson farovonligiga qaratilgan harakatdir

Iqtisodiyotga yo'naltirilgan sarmoya mohiyati, alaloqib, inson manfa'atiga borib taqaladi. Nega deganda, iqtisodiy o'sishning eng muhim jihatlardan biri — aynan inson kapitaliga ega bo'lish va undan samarali foydalanishdir. Bu esa mamlakat iqtisodiyotining dunyo miqyosidagi o'rnini belgilab beradi.



Iqtisodiy taraqqiyot va har bir insonning turmush farovonligi inson kapitaliga bevosita bog'liq. Har qanday resurs singari inson kapitali ham ko'payishi va qadrsizlanishi mumkin. Lekin bugun dunyo birinchi omilga katta e'tibor qaratmoqda. Chunki taraqqiyot, kelajak aynan shunga tayanadi.

Jahon iqtisodiy forumi Garvard universiteti va "Mercer Human Resource Consulting" xalqaro konsalting kompaniyasi bilan hamkorlikda 2013-yildan boshlab Inson kapitalini rivojlantirish indeksini e'lon qilishni boshlagan. Jahon iqtisodiy forumi mutaxassislari fikricha, "Inson kapitali global iqtisodiy tizimda ne'matlar yaratish imkonini beruvchi bilim va ko'nikmalarga ega insonlardir".

Jahon banki 2018-yildan xalqaro miqyosda mamlakatlar Inson kapitali indeksi (The Human Capital Index)ni tuzishni boshlagan. 2022-yilda ushbu reytingda 83 ta mamlakat qatnashgan.

Indeks mualliflari fikriga ko'ra, inson kapitalini o'lchashda "ta'lim olish" bilan bog'liq yillar soni emas, balki real kasbiy malaka egallash imkonini beruvchi "ko'nikmalar" muhim ahamiyatga ega.

Shunday qilib, inson kapitali deganda insonni ta'lim, sog'liqni saqlash va madaniyatni rivojlantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar tufayli shakllanadigan jam'arilgan bilim va ko'nikmalari tushuniladi.



“

So'nggi yillarda O'zbekiston xalqaro va mintaqaviy tuzilmalarda, xususan, Iqtisodiy hamkorlik tashkilotida mas'uliyatli va tashabbuskor davlat sifatida o'zini namoyon eta boshladi. Bu esa tashkilot doirasida zamonaviy transport va yo'l infratuzilmalarini rivojlanishi, xalqaro yuk va yo'lovchi tashish imkoniyatlari kengayishida, umuman, iqtisodiy aloqalar har tomonlama mustahkamlanishida katta rol o'ynamoqda.

Shu o'rinda o'quvchida maqola Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti sammiti va unda O'zbekistonning ishtiroki haqida bo'la turib, fikrlar nishabi inson kapitali tomonga burilib ketayotgani xususida savol tug'ilishi mumkin. Fikrimizni asoslaymiz. Gap shundaki, bugungi kunda IHTga o'n ta davlat — Ozarbayjon, Afg'oniston, Eron, Qozog'iston, Qirg'iziston, Pokiston, Tojikiston, Turkmaniston, Turkiya va O'zbekiston a'zo. Ushbu mamlakatlar hududi ulkan resurslarga boy. Aholisi soni esa yarim milliard kishini tashkil etadi. Bu ham iqtisodiy, ham ijtimoiy, ham siyosiy jihatdan juda katta resurs va kuch.

O'zbekistonda ushbu yo'nalishdagi ishlar, sa'y-harakatlar izchillik kasb etib bormoqda. Mamlakatning oldiga qo'ygan maqsadlari chakana emas. Marra yangi O'zbekistonni yaqin kelajakda yaxshilar qatoriga olib chiqish. Bularni o'z ichiga olgan "O'zbekiston — 2030" strategiyasi qabul qilingan. Unda belgilab olingan barcha — 100 maqsadning o'z o'ri bor, albatta. Lekin biz quyida mavzuga aloqador bir nechta mas'uliyatni ta'kidlovchi lozim topdik.

Dastlabki maqsadning mohiyatiga e'tibor berib: har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish. Bunda bolalarni maktabgacha ta'limdan tortib, yoshlarni kasbga o'qitish, oliy ta'lim olishlari uchun imkoniyatlar batafsil qayd etilgan. Xususan, shu davr ichida yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini kamida 50 foizga yetkazish, umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarini oliy ma'lumotli pedagog kadrlar bilan to'liq ta'minlash, 30 ta oliy ta'lim muassasasining ta'lim dasturlarini xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazish, "Top-500"ga kiradigan xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda kamida 50 ta qo'shma ta'lim dasturi asosida "ikki diplomli tizim"ni joriy etish, 10 ta oliy ta'lim muassasasini dunyoning eng nufuzli "Top-1000" oliy ta'lim tashkilotlari reytingiga kiritish, oliy ta'lim muassasalarida ilmiy tadqiqotlar natijadorligini oshirish va ilmiy salohiyatni 70 foizga yetkazish, iqtisodiyotning eng tez o'sib borayotgan yo'nalishlarida amaliy tadqiqotlarni kuchaytirish, "korxonalar — oliygo'ra — ilmiy tashkilot" klaster tizimini joriy etish ko'zlangan.

Shuningdek, transport va logistika, qishloq xo'jaligida hosildorlik, energetika, biotexnologiya, geologiya va metallni qayta ishlash, mashinasozlik va elektronika yo'nalishlarida 8 ta ilmiy ishlab chiqarish klasteri tashkil etiladi. Yuqorida keltirilganlarimizdek, ta'lim, ilm — kelajak mevasi ekan, ushbu maqsadlar bugungi talablarga har tomonlama javob beradi.

O'zbekiston 2030-yilga qadar iqtisodiyot hajmi 2 barobar oshib, "daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar" qatoriga olib kiriladi, yalpi ichki mahsulot hajmi 160 milliard dollarga va aholi jon boshiga daromadlar 4 ming dollarga yetkaziladi.

"Yashil iqtisodiyot"ga o'tilish, uning asosi bo'lgan qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish ko'rsatkichlari keskin oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasining global transport-logistika tarmoqlariga integratsiyasi chuqurlashtirilib, milliy transport tizimi salohiyati ko'tariladi. Tashqi va ichki turizmni rivojlantirish uchun keng sharoitlar yaratish orqali sayyohlar soni oshiriladi.

Tashkilotga a'zo davlatlar iqtisodiyoti bir-biriga bog'liq holda mustahkamlanib boryapti. Lekin davlatimiz rahbari o'z nutqida bu natijalar qoniqarli emasligiga alohida urg'u berib, o'tgan yili a'zo mamlakatlar o'rtasidagi savdo ko'rsatkichi 85 milliard dollarni tashkil etib, bu umumiy tashqi savdoning atigi 8 foizi ekanini, imtiyozli savdo bitimini tuzish bo'yicha ko'p yillik urinishlar kutilgan samarani bermayotganini, to'siqsiz savdoni shakllantirish yo'lida hali-hamon ko'plab cheklov va muammolar saqlanib qolayotganini aytib o'tdi. Shu bois, barchani ekspertlar tomonidan ishlab chiqilgan Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti doirasida savdoni soddalashtirish to'g'risidagi bitimni qabul qilishga chaqirdi.

Bundan tashqari, tashkilotga a'zo davlatlarning aksariyati dengizga a'zo davlatlarning iqtisodiy aloqalaridan tashqari, boy tarix, umumiy din, o'xshash madaniyat, san'at ham birlashtirib turadi.

Shu bilan birga, a'zo davlatlar hududiy jihatdan ham bir-biriga yaqin. Mana shu omillarning o'ziyoq, hamkorlikni yanada mustahkamlash va yangi-yangi qirralarni yuzaga chiqarish uchun katta imkoniyatdir. Zero, davlatimiz rahbari ta'bir bilan aytganda, yaqin va yaxshi qo'shni bo'lgan mamlakatlar iqtisodiyoti bir-birini to'ldiradi. Umumiy savdo-transport koridorlari va energetika tarmoqlari davlatlarni uzviy bog'laydi.

Tashkilotning ilk nomi "Mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish" bo'lib, Turkiya, Eron va Pokiston davlatlari tomonidan 1964-yilda tashkil etilgan. XX asrning 70 yillariga kelib, ichki savdoning susayib ketishi uning faoliyati to'xtatishga sabab bo'lgan. 1985-yilda "Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti" nomi ostida o'z faoliyatini qaytadan boshlagan tuzilma hozirgi ko'rinishga 1992-yil 28-noyabrda favqulodda yig'ilishdan so'ng erishdi. Pokiston poytaxti Islomobodda bo'lgan yig'ilishda Afg'oniston, O'zbekiston, Turkmaniston, Ozarbayjon, Qirg'iziston, Tojikiston va Qozog'iston tashqi ishlar vazirlari qatnashgan hamda davlatlar tashkilotga a'zo bo'lgan.

Tashkilotning asosiy maqsadlari o'laroq, faoliyati savdo-sotiq aloqalarini kengaytirish, har bir a'zo mamlakatda aholi turmush tarzini yanada yaxshilash hamda iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan. Shuningdek, a'zo mamlakatlarining madaniy aloqalarini yuksaltirish ham tashkilotning asosiy maqsadi hisoblanadi.

So'nggi yillarda O'zbekiston xalqaro va mintaqaviy tuzilmalarda, xususan, Iqtisodiy hamkorlik tashkilotida mas'uliyatli va tashabbuskor davlat sifatida o'zini namoyon eta boshladi. Bu esa tashkilot doirasida zamonaviy transport va yo'l infratuzilmalarini rivojlantirish, xalqaro yuk va yo'lovchi tashish imkoniyatlari kengayishida, umuman, iqtisodiy aloqalar har tomonlama mustahkamlanishida katta rol o'ynamoqda.

Toshkentda bo'lib o'tgan tarixiy sammit kelishuvlari va Prezidentimiz nutqida belgilangan vazifalar, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti samarali va ta'sirchan tuzilmaga aylanishi, ko'pqirrali aloqalar sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilishiga xizmat qiladi.

### Mushtarak maqsad va boy tarix — rivojlanishning asosiy jihati



## JARAYON

# KO'CHIB YURUVCHI ZAVOD

## TOZA VA UNUMDOR URUG' DALANING O'ZIDA SARALANADI

Iroda TOSHMATOVA,  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Dunyo oziq-ovqat bozori juda katta va muhim maydon. Qachonlardir uning rivojini mahsulotning soni bilan o'lgan bo'lsa, bugungi kunga kelib, talablar tubdan o'zgaradi. Hozir iste'molchilarda ko'proq ekologik toza, sifatli mahsulotlarga talab ortgan. Boshqa tomondan, sayyoramizdagi keskin ekologik vaziyat, iqlim o'zgarishlari, oziq-ovqat xavfsizligiga tahdid solayotgan ko'plab omillar qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishdagi qiyinchiliklarni oshirmoqda. Shu sabab jahon bozorida jiddiy raqobat muhiti yuzaga kelgan.

Bu raqobatga dosh berish, milliy mahsulotlarimiz talabgirini oshirish, xalqaro standartlarga mos oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish esa sohani tubdan rivojlantirishga borib taqaladi. Gap iqtisodiyotimizning eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lgan qishloq xo'jaligini zamonaviylashtirish haqida boryapti. Biz hozir ayni shu jarayonlar ichida yashayapmiz. So-haga eng yangi ilm-fan yutuqlarini olib kirish, ilg'or texnologiyalarni joriy etish, yangicha yondashuvlarga asoslangan usullardan foydalanish so'nggi yillarda, ayniqsa, faollashdi.

Eng muhimi, sohada ilmiy izlanishlar, yangiliklarga keng yo'l ochildi. Xalqaro hamkorlikdagi loyihalarni ham tobora ortib boryapti. Ana shunday loyihalardan biri BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) bilan hamkorlikda amalga oshirilmoqda. "Markaziy Osiyo va Turkiyaning qurg'oqchilik va sho'rlangan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish landshaftlarida tabiiy resurslarni kompleks boshqarish" (CACILM-2) deb nomlangan mintaqaviy loyiha maqsadi yurtimizning sho'rlangan va qurg'oqchilikka moyil yerlarida hosildorlikni oshirishga qaratilgan. Loyiha hududlari sifatida Qashqadaryo viloyatining Qamashi hamda Buxoro viloyatining Buxoro tumanlari tanlab olingani boisi ham shunda.

Belgilangan hududlarda urug'chilikni rivojlantirish bo'yicha ham yangi usullar qo'llanilmoqda. Urug'ni sifatli tozalashda zamonaviy ko'chma zavodlardan foydalanish tashabbusi shular jumlasidan. Joriy yilning sentyabr oyida Qamashi tumanidagi "Sara urug' yangi hayot" qishloq xo'jaligi kooperativiga birinchi urug' tozalash ko'ch-

ma zavodi topshirildi. Hindistondan katta mablag' evaziga olib kelingan ushbu ixchamgina qurilma yuqori sifatli urug' ishlab chiqarish jarayonining barcha bosqichlarini to'liq bajarishga qodir ekani aytilmoqda.

— Qishloq xo'jaligi mahsulotlari turi tuproq-iqlim sharoitida yetishtirilgani boisi, barcha hududlarimizga mos, yuqori hosil beradigan sifatli navlarga ehtiyojimiz katta, — deydi FAOning O'zbekistondagi vakolatxonasi loyiha milliy koordinatori Aziz Nurbekov. — Bu navlar kasalliklar, sho'r, yozning issig'iyu qishning sovu'g'iga chidamli, suv tanqisligiga bardoshli bo'lishi zarur. Tajribadan ma'lumki, bitta nav mahalliy sharoitda yetishtirilganda boshqa mintaqadan olib kelib ekilganiga nisbatan yuqoriroq hosil beradi. Shuning uchun ham urug'chilikni zamonaviy texnologiyalar asosida kengroq mahalliyashtirishimiz lozim. Ko'chma urug'xonalar esa bu borada samarali yechimlardan biri. Uni mini zavod ham deyishadi. Qurilma ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda katta salohiyat va istiqbollarga ega. Urug'likni mexanik zararlamaydigan texnologiyalar qo'llanilishi hisobiga tozalash jarayonida hajmi va shakli bo'yicha yirik



urug'lar saralanadi. Chang, qobiq, mayda begona o't urug'lari kabi yengil aralashmalar chiqarib tashlanadi va natijada sifatli urug' olinadi. Qolaversa, qurilmani bir joydan ikkinchi joyga osonlik bilan ko'chirish imkoniyati fermerlar uchun ancha qulay. Ular urug' tozalashda maxsus texnika yoki qo'shimcha ishchi kuchidan foydalanishi, ortiqcha xarajat qilishga to'g'ri kelmaydi. Bularning barini istalgan maydonga o'rnatish mumkin bo'lgan

Mutaxassislarning aytishicha, ko'chma urug' tozalagich eng zamonaviy texnologiyalardan biri bo'lib, urug' yetishtirish muammolarini nisbatan tez va kam xarajat bilan hal qilish imkonini beradi. Gap shundaki, urug'chilik qishloq xo'jaligining eng muhim sohasi va sanoatni rivojlantirish omilidir. Biz ko'p ta'kidlaydigan serhosil qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning asosiy sharti ham shunga



ko'chma mini zavodning o'zi uddalaydi.

### Barcha bosqich birgina texnikada

Ko'chma qurilmaning asosiy vazifasi urug'ni tozalab, sifatli donni ajratib berishdan iborat. Buning uchun u dizel motor, urug'ni fraksiyalarga ajratadigan to'rlar, har xil fizik aralashmalarni ajratadigan quvurlar, don tozalaydigan uskunalar bilan jihozlangan. Bo'yi atigi 6, eni 2 metr bo'lgan zamonaviy mashina bug'doy, arpa, javdar, maxsar, kungaboqar, soya, mosh va boshqa ko'plab turdagi ekinlar urug'ini tozalaydi, qahva va sabzavot urug'ini ham qayta ishlashi mumkin.

borib taqaladi. Ya'ni urug'chilik qanchalik rivojlangan, mahalliy sharoitimizga mos sifatli navlar qancha ko'p bo'lsa, ekinlar hosili shuncha yuqori bo'ladi.

— Biroq urug'ni ko'paytirish paytida yuzaga keladigan mexanik shikastlanish, tabiiy ajralish va mutatsiya, o'zaro changlanish hamda boshqa jarayonlar ta'sirida vaqt o'tishi bilan genetik tozalik buziladi, — deydi Aziz Nurbekov. — Shuning uchun sertifikatlangan ekinlar navlarini ishlab chiqarish uchun asos bo'ladigan urug'ni vaqti-vaqti bilan yangilab turish kerak. Bu odatda dalaning o'zida amalga oshiriladi. Birlamchi tozalash don tarkibidagi aralashmalar miqdorini 1-3 foizgacha kamaytiradi. Ammo jarayonda asosiy donning yo'qolishi 1,5 foizdan oshmasligi zarur.



dalangan don zarrachalarining maksimal miqdorini olib tashlash mumkin. Ammo ko'p hollarda dalalar begona o'tlar bilan qoplangan bo'ladi va urug'lik donni ular-dan o'rimg'img'andan keyin ham tozalashga to'g'ri keladi. Bu qo'shimcha vaqt va xarajat degani. Ko'chma urug' tozalash texnikasi esa donni barcha turdagi aralashmalardan osonlik bilan tozalab, sara nav olish imkonini beradi.

Qurilmadan foydalanishning o'z yo'riqnomasi bor. Bu haqda mutaxassis-dan so'raganimizda, zamonaviy uskuna ekin urug'larini bir necha bosqichda tozalab berishini ta'kidladi. Avvalo, urug' dastlabki tozalashdan o'tkaziladi. Bunga changdan tozalash, asosiy urug'lik donning singan, shikastlangan, puch donalari saralash kiradi. Hatto kemiruvchilar va hasharotlar tomonidan buzilgan donlar ham ajratib olinadi. Bu bosqichning vazifasi don ekinlari sifatini yaxshilash, urug'lik donni tozalashni yanada soddalashtirish, mahsulotlarni quritish, saqlash va yuklash uchun qulay shart-sharoit yaratishdan iborat.

Jarayonning keyingi qismida urug'likni tozalashning birlamchi bosqichiga o'tiladi. U havo purkovchi mashinalarda amalga oshiriladi. Bunday tozalagichlar har xil turdagi iflosliklar, yengil aralashmalarni olib tashlaydi. Donlardagi og'irroq aralashmalar esa turli shakl va hajmdagi elaklardan o'tkaziladi. Havo purkagichdan o'tadigan donning namligi 18 foizdan oshmasligi kerak. Uskunalar don massasini aerodinamik xossalari, donalari kengligi va qalinligidan kelib chiqib ajratadi. Triyers mashinasi esa donni uzunligi bo'yicha saralaydi. Birlamchi tozalash don tarkibidagi aralashmalar miqdorini 1-3 foizgacha kamaytiradi. Ammo jarayonda asosiy donning yo'qolishi 1,5 foizdan oshmasligi zarur.

— Dastlabki va birlamchi tozalashdan keyin 40-50 foiz aralashma qoladi, — deydi Aziz Nurbekov. — Demak, urug'lik donni qayta ishlash orqali I va II sinflarning tozalik standartlariga yetkazish uchun ikkilamchi tozalash zarur. Ko'chma qurilma ushbu jarayonni ham ilg'or texnologiya asosida amalga oshiradi. Murakkab havo elakli mashinalar konditsiyali urug'lik donni hamda singan urug', xas, katta va kichik aralashmalarni ajratib beradi.

Zavod yil davomida ming gektar ekin maydonida yetishtirilgan urug'likni qayta ishlash quvvatiga ega. Uskunaning ilk foydalanuvchilari bo'lgan Qamashi tumanidagi "Sara urug' yangi hayot" qishloq xo'jaligi kooperativi 20 ga yaqin fermer xo'jaligini birlashtiradi.

Ko'chma urug' tozalash minizavodidan CACILM-2 loyihasi ishtirokchilari foydalanadi. Yangi uskuna nafaqat mehnat unumdorligini oshirishi, balki vaqt va resurslarni sezilarli tejashi, fermerlar daromadini ko'paytirishi kutilmoqda. Qolaversa, u yurtimizda sara urug'lik olish hamda qishloq xo'jaligini innovatsion texnologiyalar asosida rivojlantirishda muhim o'rinni tutadi.

**“ Hozircha amaliyotda bitta ko'chma urug' tozalash zavodidan foydalanilyapti. Tajriba kutilgan natijani bersa, zamonaviy uskunani boshqa hududlarga ham olib kirish mumkin. Yangi texnologiyaning fermerlar faoliyatida ommalashishi sifatli urug'lik olish orqali daromadni oshirish bosqichida mamlakatimiz iqtisodiy rivojiga ham xizmat qiladi.**

## YASHIL MAKON



### O'rmonchining bir kuni

O'ziga xos zavqli, xavf-xatardan ham xoli bo'lmagan o'rmonchilik kasbini 35 yildan buyon ardoqlab kelayotgan Ubaydulla Nazarov o'ziga birlashtirilgan hududning har bir g'iyohidan tortib, tog'u toshlarigacha yaxshi biladi. Hattoki ko'p yillik tajribasi tufayli ulkan arxalarning yoshi nechada ekani-yu, o'tgan yili qo'ng'ir ayiq nechta bolalaganigacha aniq aytib beradi, hisobdan adashmaydi. Dov-daraxtlar, o't-o'lanlar-u hayvonot olami bilan do'stlashib ketgani-ga ancha yillar bo'lgan. To'g'ri, boshida bu kasbga o'rganishi bir oz mushkul kechdi. Otasining suvagi ham tabiat qo'nyida qolib, umri o'rmon nazoratchiligida o'tgani boisi, undan ko'p maslahat oldi. Har bir so'z qo'moq va dara haqida kerakli ma'lumotlarni to'pladi. Gohida adashdi. Yirtiqch hayvoniga duch kelib qolganida, o'zini qanday himoya qilishni o'rgandi.

Bugun ham tongda turib, har doimgi safar xaltasini olib, unga kerakli narsalarni soldi-da, yelkasiga osganacha yo'lga otlandi. Yakkabog' ixtisoslashgan davlat o'rmon xo'jaligi Qizilsuv bo'limining asosiy qismi baland tog'lar va arxazorlardan iborat. O'n bir ming gektarga yaqin hududni nazorat qilish unga ishonib topshirilgan. O'ttiz besh yildirki, uning hududida biror marta noxush holat ro'y bermadi. Tabiatga zarar

yetkazishga uringanlarni vaqtda aniqlab, chora ko'rishga intildi.

Yolg'izoyoq yo'ldan yurib borarkan, atrofini kuzatishni kanda qilmaydi. Quyosh nurlari avval huv naridagi bulutga yondosh cho'qqi boshiga tushib, keyin sekin-asta pastlay boshlaydi. Bugun bir oz erta turgani boisi, hali o'tob nuri ko'rinish bergani yo'q. Tepalik tomon qaralishib borarkan, onda-sonda tulki yoki tovushqon o'tib qoladi. Kuz fasli pishiqchiligidan pista-bodum tashish bilan ovora yumronqozlilar ham odam qadamidan sergak tortadi. Go'yoki xavf yaqinlashayotgandek, xabarchi qushlar pir etib ko'tarilganicha sayrab yuboradi. Bu ogohlik qo'ng'irog'idan barcha hayvonot olami hushyor tortib, yashirinishga intiladi.

Tushga yaqin hududni ko'zdan kechirib qaytgan Ubaydulla aka xarsangtosh ustiga o'tirganicha bir oz hordiq chiqaradi. Safar xaltasidan yon daftarchasini olib, tabiiy tiklanayotgan daraxtlar sonini qayd qilib qo'yadi. Oldin uchratmagan biror hayvonni ko'rgan bo'lsa, uni ham alohida yozadi. Avvalgi yozganlariga qarab, ba'zi narsalarni chamalaydi.

Qo'sh archa atrofidagi zilol chashma yoniga o'tirib, miriqib suv ichadi. Chanqog'i qonib, huzurlanadi. Shu yerda o'tirib nonushta qiladi. Non hidini olgan qushlar chashma yonida charx ura boshlaydi. Har kungi odati bo'yicha ushoqlarni buloq yonidagi tosh supa ustiga sepib chiqadi. Qushlar esa uvoqlarni yemoqqa shoshiladi.

Kunning ikkinchi yarmini hududdagi ko'chatchilik bog'ida o'tkazadi. U yerdagi niholli tagiga ishlov beradi, sug'oradi. Bo'sh yerni chopiq qilib, daladan terib kelgan archa urug'larini ekib chiqadi.

— Har yili 15 turdagi ikki yuz mingga yaqin daraxt niholi yetishtiramiz, — deydi Ubaydulla aka. — Hozir kuzgi mavsum

**“ Qo'sh archa atrofidagi zilol chashma yoniga o'tirib, miriqib suv ichadi. Chanqog'i qonib, huzurlanadi. Shu yerda o'tirib nonushta qiladi. Non hidini olgan qushlar chashma yonida charx ura boshlaydi. Har kungi odati bo'yicha ushoqlarni buloq yonidagi tosh supa ustiga sepib chiqadi. Qushlar esa uvoqlarni yemoqqa shoshiladi.**

daraxt ekishning ayni vaqti. Shu bois, biz ham nihol kovlashni boshlab yubordik. Bir qismini buyurtmachilarga yetkazib bersak, qolganini o'rmon xo'jaligimizga ekamiz. Bizda nihollar, asosan, urug'dan ko'kartiriladi. Bir yillikdan tortib, uch-to'rt yillik ko'chatlar bor. Bugun ham ikki yuz tup ko'chatni belgilangan joyga ekamiz. Kuzda ekilgan niholning tomir o'tishi yaxshi bo'ladi.

Tun qorong'isida uyiga qaytayotgan o'rmonchining kayfiyati chog'. Sababi bugun rejalashtirgan ishlari bajarildi. Muhimi, hudud tinch. Tabiat go'zalligiga hech kim zarar yetkazishga harakat qilmagan. O'rmon jonzotlari esa bexavotir. Demak, tunni orom bilan o'tkazsa bo'ladi.

### Bir milliondan ziyod ko'chat yetkaziladi

1925-yilda tashkil etilgan Yakkabog' ixtisoslashgan davlat o'rmon xo'jaligi tasarrufida 44637 gektar maydon mavjud. Shundan 16 ming gektardan ortig'i o'rmon bilan qoplangan.

Xo'jalik, asosan, yettita — Kengguzar, Qushlot, Cho'yanli, Langar, Dara, Tosh-qo'ng'on va Qizilsuv bo'limlariga bo'lingan. 150 nafarga yaqin ishchi xo'jalikda ko'chatchilik, chorvachilik, asalarichilik, dorivor g'iyohlar yig'ish, qishloq xo'jaligi

mahsulotlari yetishtirish bilan shug'ullanadi.

— Hozir ko'chatchilik bog'imizda besh million tup nihol bor, — deydi xo'jalik rahbari Turg'un Nurmatov. — 25 gektarda 32 turdagi daraxt nihollari parvarishlanmoqda. Bu yilgi kuz mavsumida bir milliondan ortig'ini sotish niyatidamiz. Yakkabog' tumanida mavjud 62 ta mahallaga 12400 tup ko'chatni bepul yetkazib beramiz. Bundan tashqari, 28 ming tup tup niholni fermer xo'jaliklariga ekin maydonlari atrofini ihotazorlashtirish uchun beramiz. Har yili 80 ming donasi xo'jalikning o'ziga tabiiy tiklanishga ko'maklashish maqsadida ekiladi. Keyingi yillarda o'rmonlarimiz maydoni tobora kengayib bormoqda. Buning asosiy sababi aholi o'rtasida ekomadaniyat shakllanayotganida, deb bilaman. Qolaversa, tog' va tog'oldi hududlarda yashovchilarning turmush tarzi ham yaxshilanmoqda. Ya'ni ilgari ular uy isitish yoki ovqat tayyorlash uchun o'tin yoqqan. Hozir joylarga gaz balonlari yetkazib berilmoqda. Ko'mir bilan ta'minlana boshlandi. Buning samarasida daraxt kesishlar keskin kamaydi.

Ayni kunlarda Qashqadaryo viloyatining ko'pgina tuman va shaharlariga ko'chat yetkazish uchun buyurtmalar qabul qilish boshlangan. Birgina ko'chatchilik ortidan o'tgan mavsumda bir milliard so'm daromad topilgan bo'lsa, bu yil yanada ortishi taxmin qilinmoqda.



### Tabiat muvozanatiga xizmat qiladi

Bugungi kunda Qashqadaryo viloyatida jami 10 ta o'rmon xo'jaligi bor. Ularning umumiy yer maydoni 325 220 gektar bo'lib, shundan bo'limlari soni 48 ta, uchastkalari soni 6 ta. O'rmon bilan qoplangan maydonlar 139 292 gektar. Yaylov maydoni 89920 gektar, ko'chatxonalar maydoni esa 188 gektar.

Viloyatda joriy yil bahorgi mavsumda 10 million 174 ming tup daraxt va buta ko'chati ekilishi rejalashtirilgan bo'lsa-da, 10 million 264 ming tup ekildi. Kuzgi mavsumda esa 6 million 947 ming tup ko'chat ekiladi.

Hozir voha bo'yicha 11 million 232 ming 120 tup ko'chat zaxirasi mavjud. Demak, Qashqadaryoda joriy yilgi daraxt ekish mavsumiga tayyorgarlik yaxshi. Ekishga hozirlangan nihollardan esa kattagina yashil hudud paydo bo'ladi.

**Akbar RAHMONOV,**  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



ZAMONDOSH

# Ezgulik ehashmasi

Olimu ijodkor inson — bamosoli jamiyat hayotidagi ezgulik chashmasi. Bu buloqdan qanchadan-qancha odam bahramand bo'lib, qalb ko'zi ochiladi, ongu shuuriga nur, hayotiga fayz kiradi. Keyingi besh-olti asrlik tariximizga nazar tashlasak, o'lkamizda ahli ilm hayoti va faoliyatida ajib bir an'ana bardavomligini ko'ramiz. Bu ilm va amal musharakligidir. Milliy ma'naviyatimiz shami shabiston, turkiy til pahlavoni, agar chin desak, sohibqironi Mir Alisher Navoiy bobomiz va yana ko'plab ulug' ajdodlarimiz merosi bunga yaqqol misoldir. Ul sharif zotlar kechasi bilan ilm va ijod qozonida "halvo" pishirib, kuni bilan el-yurt xizmatini ado etgani tarixiy manbalardan yaxshi ayon.



Hech shubhasiz, bunday ibratli faoliyat chuqur ilmiy-ma'naviy asosga ega bo'lib, yurtimiz zaminida shakllangan xojaon tariqatining buyuk namoyandasi Bahoudin Naqshband hazratlari ilgari surgan "Dil — ba yoru, dast — ba kor" degan dasturiy g'oya — paradigmatdan oziqlandi, desak xato bo'lmas.

Bu fikr — aytimni bugungi zamonga moslab, soddagina ifoda etib, bunday deysiz mumkin: faqat nazariya bilan kifoyalaniq qolmasdan, uni amaliyot bilan bog'langiz, toki ilming har bir zarrasi el-yurtga naf keltirsin.

Ming shukrki, ilm bilan Haqqa, amal bilan xalqqa bog'lanib, ham olimu ijodkorlik, ham insoniylik burchini chin dildan ado etib kelayotgan yurtodoshlarimiz bugun ham ko'p. Odatda bunday odamlar juda kamtar va kamsuqum bo'ladi. Shundoq yonimizda yashab yurishsa-da, ularning hayotimiz, fikriy taraqqiyotimizdagi o'rni va ta'sirini ko'p ham sezavermaymiz.

Qarshi davlat universiteti professori, Oliy Majlis Senati a'zosi, taniqli jamoat arbobi Abdurahim Erkayev ilming ana shunday kamtarin zahmatkashlaridan. Tanigan-bilganlar uni "ma'naviyatshunos olim" deb ataydi. Chunki keyingi 30 yillikdan ziyod ilmiy faoliyatini aynan shu sohani o'rganish, tadqiq va targ'ib etishga bag'ishlagan-da! Olim og'amiz aslida, Suqrot, Afloxtun Forobiydek buyuk donishmandlar panjasiga panja urib, falsafa fani bo'yicha nomzodlik rutbasiga sazovor bo'lganini ko'pchilik unutib yuborgan bo'lsa ham ajab emas. Nega desangiz, ma'naviyat xalq diliga yaqin, unda ilm ham, amal ham, hikmat va ibrat ham mujassam-da!

Bor bilim va iste'dodi, nazariy va amaliy faoliyatini el-yurt ravnaqiga bag'ishlagan ustoz Samarqand davlat universiteti rus filologiyasi fakultetida taqdir taqozosi bilan Rossiya, Ukraina va Polshadan shu qadim kentga kelib qolgan rus, yahudiy, ukrain, polyak, tatar va boshqa millatga mansub domlalaridan saboq oldi. Ularning qo'ldagi oliyohq dasturiga kirmagan, o'sha zamonlarda taqiqlangan

iborat "Ma'naviyatshunoslik" monografiyalari (2018), "Yangi O'zbekiston: mo'ljal Uchinchi Renessans" risolasi (2021), "Abdulla Oripov dahosi" essesi (2021), ko'plab risola va maqolalari ilmiy-ijodkor ziyolilarimiz, akademik doiralar vakillari va keng jamoatchilik tomonidan doimo katta qiziqish bilan o'qilib, yuksak baholarga sazovor bo'lib kelmoqda.

"Ma'naviyat — millat nishoni" asari 2000-yilda O'zbekiston Respublikasi Fan va texnika davlat qo'mitasi tomonidan o'tkazilgan ma'naviyat bo'yicha eng yaxshi monografiya, darslik va o'quv qo'llanmalari tanlovida g'olib deb topildi. Muallifning "Duxovnost — energiya nezavisimosti", "Duxovnost i razvitiye", "Put razvitiya Uzbekistana" kitoblari shu kungacha ushbu mavzuda rus tilida yaratilgan sanoqli monografiyalar sirasiga kiradi. Ulardan mamlakatimizda rus tilidagi ta'limning barcha bo'g'inlarida samarali foydalanilmoqda.

Hozir aksariyat fanlar nomining chetdan kirib kelishiga o'rganib qolganmiz. Ammo ma'naviyatshunoslik bundan mustasno. Mamlakatimizda ana shunday mustaqil fan shakllanishi uchun barcha nazariy va metodologik asoslar yaratilgan. Prezidentimizning "Ma'naviyatshunoslik" asari samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida qo'rar bilan tegishli oliy ta'lim muassasalari o'quv rejasiga bakalavriat bosqichida ma'naviyatshunoslik, magistraturada kasbiy ma'naviyat fanlari kiritilgani, ma'naviyat tarixi va nazariyasi, ma'naviy tarbiya, ma'naviy jarayonlar va texnologiyalar kabi fanlar ilm-fan ixtisosliklari klassifikatoridan joy olgani, mazkur yo'nalishlarda izlanish qilyotgan bo'lg'usi fan doktorlari uchun ixtisoslashgan kengash tuzilib, dissertatsiyalar yoqlovi yo'lga qo'yilgani buning yorqin dalildir. Ushbu yo'nalishdagi fanlarni ta'lim tizimiga joriy etish bo'yicha muayyan tajriba ham to'plandi. Bu sohada bakalavr va magistrat tayyorlanmoqda, bir qancha oliy o'quv yurtlarida kafedra-

Mustaqillikning dastlabki yillarida "Tafakkur" va "Jahon adabiyoti" kabi jurnallar, "Ma'naviyat" nashriyoti singari ma'rifatxonalar tashkil etilib, yosh tadqiqotchi faoliyati uchun keng maydon ochildi. Ana endi ko'ring, olim akamizning bir-biridan mag'zi to'q turkum maqolalari kitoblar yozganini!

Erkin va ozod hayot nafasidan xalqimiz uyg'onib, milliy qadriyatlarimiz yana asl libosini kiya boshlagan davrlarda ma'naviyat, tafakkur erkinligi, jamiyatni demokrattashtirish, milliy istiqol g'oyasi haqida O'zbekistonda eng ko'p va xo'p qalam tebratgan tadqiqotchilardan biri aynan shu domlamiz bo'ladi, desak adashmaymiz. Buni olimning ushbu mavzuda o'zbek va rus tillarida nashr qilingan 20 dan ortiq sermazzun risola va monografiyasi, ko'plab maqolalari, hududiy va markaziy teleradiokanalardagi chiqishlari ham yaqqol tasdiqlaydi. Shu ma'noda, professor Abdurahim Erkayev istiqol yillarida milliy ma'naviyatimizni yangicha ilmiy-metodologik asosda o'rganishga begiyos hissa qo'shgan olimlarimizdan biridir.



Ustozning "Ma'naviyat — millat nishoni" (1997), "Duxovnost — energiya nezavisimosti" (1997), "Milliy g'oya va ma'naviyat" (2002), "Ma'naviyat va taraqqiyot modeli" (2004), "Tafakkur erkinligi" (2007), "Ma'naviyat va taraqqiyot" (2009), "O'zbekiston yo'li" (2011), "Duxovnost i razvitiye" (2008), "Put razvitiya Uzbekistana" (2013), ikki kitobdan



ma'naviyatshunoslik fani rivojida muhim o'rnga ega. Chunki unda ma'naviyatning jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyati har tomonlama ochib berilgan.

Bir so'z bilan aytganda, ikki jildli "Ma'naviyatshunoslik" monografiyasi mustaqillik yillarida ushbu yo'nalishdagi ulkan fundamental ilmiy tadqiqotdir. U mamlakatimizda ma'naviyatni o'rganishni fan darajasiga ko'tarishga munosib hissa bo'lib qo'shildi.

Olimning asarlari chet ellarda ham e'tirof etilgan. Masalan, Germaniyaning Gumboldt universitetida S.Mayers 2014-yilda nemis tilida "Der Ma'naviyat-Begriff bei Abdurahim Erkayev. Eint Analyse auf Grundlage ausgewählter Werke" ("Ma'naviyat Abdurahim Erkayev ta'limida. Tanlangan asarlari tahlili") mavzusida magistrlik ishini yoqlagan. S.Mayersning ingliz tilida AQSHda chiqadigan "Journal of Political Ideologies" jurnalining 2017-yil dekabr sonidagi "Ma'naviyat in Uzbekistan: an ideological extrication from its Soviet past?" ("O'zbekistonda ma'naviyat: mafkuraviy sovet o'tmishidan chiqib keta oldimi?") maqolasida Abdurahim Erkayevning 6 ki-

bili yo'q, degan xulosasi ham ta'sir ko'rsatgani ehtimoldan uzoq emas.

Bu fikrlar yuqorida eslatilgan paradigmatning "Dil — ba yoru" qismiga oid ba'zi mulohazalar, xolos. Endi "Dast — ba kor" qismidan bir shingil eshiting.

G'oyat e'tiborga molik jihati shuki, Abdurahim domla ko'plab nazariy va metodik manbalarni sinchiklab o'rganishni talab etadigan shuncha kitob va maqolalarni amaliy faoliyatdan ajralmagan holda yozdi. Ayniqsa, Qashqadaryo viloyati hokimligida ijtimoiy masalalar bo'yicha kотиbiyat mudiri bo'lib ishlagan yillarida butun O'zbekistonimiz kabi ushbu voha ham barcha sohada qayta tiklanish davrini boshdan kechirayotgan edi. Abdurahim Erkayev o'sha payt viloyat hokimi bo'lgan mohir tashkilotchi rahbar, chinakam vatanparvar inson Nuriddin

Abdurahim Erkayev hokimlikda ishlab yurgan kezarlari ham qadrdon bilim dargohi — Qarshi davlat universiteti bilan aloqani uzmasdi, bir paytning o'zida ilmiy-pedagogik faoliyatini ham davom ettirdi. Hozirgacha ko'plab iqtidorli tadqiqotchilarga ustozlik qilib kelmoqda. Uning ilmiy rahbarligida ma'naviyat va til masalalari bo'yicha dolzarb mavzularda nomzodlik va PhD dissertatsiyalari yoqlandi, qator bitiruv-malakaviy ishlari, magistrlik dissertatsiyalari himoya qilinmoqda.

Yana bir qutlug' maskan — Qarshi shahridagi Abdulla Oripov ijod maktabi professor og'amiz doimo borib, xabar olib turadigan sevimli go'shadir. Atog'li shoirimizning ijodiy merosini to'plash, o'rganish va targ'ib etish, muzeyini muhim ashyolar bilan boyitishda ham Abdurahim aka alohida faollik ko'rsatib kelmoqda.

Taniqli olim Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti huzuridagi fan doktori va falsafa doktori ilmiy darajalarini beradigan kengashining ilmiy seminarlari a'zosi. Domlamiz "Tafakkur", "Sohibqiron yulduzi" va "QarDU xabarlari" jurnallarining tahririyat va jamoatchilik kengashi a'zosi ham. Ustozning ilmiy-pedagogik faoliyatini yuksak baholab, Qarshi davlat universiteti ilmiy kengashi 2016-yilda unga professor unvonini berdi.

Abdurahim Erkayev yurtimiz va viloyat siyosiy-ijtimoiy hayotida, jamoatchilik ishlarida faol ishtirok etib kelmoqda. U Xalq deputatlari viloyat kengashi deputati, Oliy Majlis Senati a'zosi. Doimo ma'naviy uyoq qalb bilan yashaydigan og'amiz mamlakatimizning 1992-yilda qabul qilingan Konstitutsiyasi komissiyasi hamda yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi komissiyasining a'zosi sifatida Bosh qonunimiz loyihalarini ishlab chiqish va takomillashtirish jarayonida bevosita ishtirok etgan.

Domlarning mamlakatimiz taraqqiyotiga qo'shgan hisssasi davlatimiz va jamiyatimiz tomonidan munosib e'tirof etib kelimoqda. U "Mehnat shuhrati" ordeni (2018) va qator esdalik va ko'krak nishonlari bilan taqdirlangan.

Shu kunlarda tabarruk 75 yoshini qarshilayotgan Abdurahim aka hozir ham Qarshi davlat universitetida yoshlarga dars berib, yangi O'zbekiston va Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishning g'oyaviy-ma'naviy asoslari haqida g'oyat qiziqarli maqola, risola va monografiyalari, ma'rifiy chiqishlari bilan xalqimizga sidqidildan xizmat qilib kelmoqda. Umringan mana shu laziz lahzalarida domlarning yana bir kitobi nashrdan chiqish arafasida. Bu ustozning ushbu tabarruk yoshda ham izlanish va intilishdan to'xtamasdan, ilm-ma'rifat yo'lida yangi manzillar ochayotganidan dalolat.

Olim akamizni yaqinlashib kelayotgan qutlug' yoshi bilan chin dildan muborakbod etib, unga mustahkam sog'liq, ezgu faoliyatida yangi yutuqlar tilaymiz.

**Qiyom NAZAROV,**  
**O'zbekiston faylasufi**  
**milliy jamiyati raisi,**  
**falsafa fanlari doktori,**  
**professor**  
**Murtazo QARSHIBOY,**  
**O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist**



Zayniyev bilan yelkama-yelka turib ishlab, ana shu jarayonda faol ishtirok etdi. Ertadan kechgacha, ba'zan hatto yarim tungacha el-yurt tashvishi bilan band bo'lgan jonkuyar xodim ilm va ijod bilan shug'ullanish uchun ham vaqt, imkon topib, shuncha kitob va maqolalar yozgan — bu rosmana ma'naviy jasorat namunasi, desak mublag'a bo'lmaydi. Ish tig'izligi tufayli ustoz nashriyot yoki tahririyyatlar, ilmiy kengashlar bilan bog'liq ishlarni hal etish uchun Toshkentga kelishga zo'rg'a vaqt topar edi. Tongda poytaxtga kelib, hatto tamaddi ham qilyotmasan, peshinda Qarshiga shoshilinch qaytib ketganiga ko'p guvoh bo'lganmiz. Chunki qalb ilmga, qo'l ishga bog'langan.

Abdurahim aka qiyin va murakkab o'tish yillarida ona diyori — Qashqadaryoning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga munosib hissa qo'shdi. 2006-yilda maktab o'quvchilarining viloyatda o'tkazilgan "Umid nihollari" sport o'yinlari hamda Qarshi shahrining keng miqyosda nishonlangan 2700 yillik yubileyini o'tkazish bo'yicha tashkiliy ishlarni siyosiy-ma'naviy jihatdan puxta tayyorlashda jonbozlik ko'rsatdi. Ana shu tadbirlar munosabati bilan chop etilgan qator ilmiy-ommabop nashrlar, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni hozirlash jarayoniga bosh-qosh bo'ldi. Xususan, "Qashqadaryo: istiqbol sari odimlar" risolasi, "Qashqadaryo manzaralari", "Naxshab javohirlari" rangli rasmlar to'plami, uch tildagi "Qarshi — 2700" albom-kitobi, 5 tildagi "Qarshi" bezakli ma'lumotnomasi, qator bukletlar loyihasi aynan uning tashabbusi bilan ishlab chiqildi.

lar tashkil qilingan. Tegishli oliyog'hlarda ma'naviyatshunoslik fani o'qitilmoqda. Abdurahim akaning "Ma'naviyat" nashriyotida bosilib chiqqan ikki kitobdan iborat yirik "Ma'naviyatshunoslik" monografiyasi va uning asosida tayyorlangan o'quv dasturi bu sohadagi noyob manbalardan biridir. Ko'plab mutaxassis va ekspertlar fikricha, monografiya

tobiga 10 marta murojaat etilgan va zarur o'rinlarda iqtiboslar keltirilgan. Ko'rinib turibdiki, domlarning asarlarini maxsus o'rgangan olim va ingliz tillarida "ma'naviyat" tushunchasini tarjimasiz, asiyatda qanday bo'lsa, shundog'icha keltirgan. Bunga Abdurahim Erkayevning "ma'naviyat" tushunchasiga bergan ta'rifi va uning G'arb tillarida muqo-

KASABA UYUSHMALARI



**Nazira NASRIDINOVA,**  
**Ta'lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi kengashining Toshkent shahar Mirobod tumani bo'linmasi rahbari**

**Kasaba uyushmalarini bejiz xalqchil tuzilma deyishmaydi. Ezgu g'oyalari, amaliy ishlari bilan jamiyatimiz hayotiga g'oyat yaqin, e'tibor va g'amxo'rlikni bugun har bir jamoa, har bir ishchi-xodim va mutaxassis his qilib yashamoqda.**

## MAROQLI MEHNPATGA KAMARBASTALIK

Boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkilotlari yuridik shaxs bo'lgan korxonada, muassasa, o'quv yurtlari va tashkilotlarning a'zolari 3 nafardan kam bo'lmagan taqdirda tashkil etiladi. Poytaxtimizdagi Ta'lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi kengashining Mirobod tumani bo'linmasidagi 60 ta boshlang'ich tashkilotda 4 ming nafardan ortiq a'zolari mehnat qilmoqda.

Mazkur tashkilotlar ish beruvchilar bilan tarmoq kelishuvlari, yuridik shaxs maqomiga ega muassasa va tashkilotlarda jamoa shartnomalari tuzilishiga erishish, ularning bajarilishi ustidan nazoratni yo'lga qo'yish, mehnat munosabatlari tartibga solish, xodimlarga ish haqi va boshqa to'lovlarning to'lanishida ijtimoiy adolatlarni ta'minlashga katta e'tibor qaratib kelmoqda. Shuningdek, kasaba uyushmasi a'zolari o'rtasida madaniy-ma'rifiy, jismoniy tarbiya va

sport, sog'lomlashtirish tadbirlari hamda dam olishlarini tashkil etish barobarida, sanatoriy-kurortlarda davolash, bolalarni sog'lomlashtirish masalalarida davlat hokimiyati organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish idoralari, birlashma va tashkilotlar bilan hamkorlik qilib kelyapmiz.

Chunki aholining maroqli hordiq chiqarishini sifatli tashkil etishga ko'maklashish kasaba uyushmasi barcha xodimlarining ijtimoiy himoyalash borasidagi asosiy vazifalari sirasiga kiradi. Barcha boshlang'ich kasaba uyushma tashkilotlariga xodimlar borada o'z arizalari bilan murojaat qiladi va ularni bizga yuboradi. Ana shu arizalar asosida ularning hordiq chiqarish ta'minlanadi, ayniqsa, yozgi ta'vil davomida sanatoriy va dam olish uylariga yo'llanmalar hujjat to'plami shakllantiriladi.

Bu yil ham "Ug'om" oromgohi, "Chotqol tog'i", "Bildirsoy", "Navroz" va boshqa

dam olish uylarida 20 dan ortiq xodim maroqli hordiq chiqardi. Ijtimoiy sug'urta mablag'lari hisobidan 70 va kasaba uyushma budjeti jamg'armasi hisobidan 15 nafar xodim "Chinobod", "Turon", "Oqto'sh", "Chortoq", "Zomin", "Shafran", "Bo'ston", "Zarkent", "Botanika", "Sevarsoy" va boshqa sanatoriyalarda sog'lig'ini mustahkamladi. Shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining 300 ga yaqin xodimlari uchun "Kumushkon", "Shirimbuloq", "Nilufar", "Zomin" dam olish maskanlariga sayohatlar uyushtirildi.

Joriy yil yozgi ta'vil mavsumida "Burgut", "Anor", "West — Camp", "Ug'om" bolalar sog'lomlashtirish oromgohlarida 30 nafarga yaqin xodimning farzandlari dam oldi. Umumta'lim maktablari qoshida faoliyat yuritayotgan 3 ta oromgohda esa 100 dan ortiq o'g'il-qizlar ta'lim mazmunli o'tkazdi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining 100 nafar xodimi uchun

Samarqand, Xiva va Buxoro shaharlariga ekskursiyalar tashkil etildi.

Kasaba uyushmalari federatsiyasi kengashining barcha tadbirlarida tumandagi boshlang'ich kasaba uyushma tashkilotlari faol ishtirok etmoqda. "Eng namunal boshlang'ich tashkilot" shahar bosqichida tumanimizdagi 282-maktabgacha ta'lim tashkiloti 1-o'rinni egalladi. "Boshlang'ich kasaba uyushma tashkilotlariga amaliy yordam ko'rsatish", "Sog'lom tunda — sifatli ta'lim", "Eng yaxshi jamoa shartnomasi — 2023" ko'rik-tanlovlari alohida ahamiyatga ega bo'lib, ular orqali umidli yoshlar o'z iqtidorini namoyon etdi. "Yilning eng faol yosh tarbiyachisi" tanlovida maktabgacha ta'lim tashkilotlarimiz doimo g'oliblar safida bo'lib kelmoqda.

Odamlar uchun qilyotgan barcha ishlarimiz mohiyati, birinchi navbatda, ijtimoiy adolatlarni ta'minlashga qaratilgan. Bu ish haqi, rag'batlantirish, imtiyozli yo'llanmalar, ijtimoiy himoya tushunchasiga kiritilgan barcha jihatlarga taalluqli-dir.

Ta'lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi Mirobod tumani kengashi bundan buyon ham mehnatkashlarimizning ezgu ishlarida faol yordam beradi va ularning konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlashda kamarbasta bo'ladi



## QADRIYAT

# ASL SIFATLARIMIZDA YASHAYLIK, soyaga aylanmaylik!

## YOXUD YETTI AJDODNI BILISH NIMA UCHUN MUHIM?

“Yetti ajdod”, “yetti pusht” degan iboralar tez-tez quloqqa chalinib turadi. Masalan, quda-andachilik rishtalarini bog'lashda tomonlarning ajdodlarini surishtirish an'anasi bugun ham bor. Gen sifatlarining qon orqali avlodlardan avlodga o'tishini zamonaviy tibbiyot ham isbotlab turibdi. Demak, mazkur tushunchalarning paydo bo'lishi hamda bizgacha yetib kelishi bejiz emas. Yetti avlod falsafasi va ota-bobolarimizni bilishning hayotiy quvvati haqida tanliq folklorshunos olim, filologiya fanlari doktori, professor Shomirza TURDIMOV bilan suhbatlashdik.

— Yetti ajdod tushunchasi o'zbek xalqi tarixi sahifalarida yozilmagan qoidalar, qonunlar sirasiga kiradi, desak to'g'ri bo'lar. Tarixda har bir urug'ning o'z tamg'asi bo'lgan. Bugungi kunda juda ko'pchilik bu tamg'aning asl mohiyatini yaxshi tushunmaydi, shu sababi turlicha talqinlar uchray turadi. Aslida, tamg'a muayyan urug'ning jamiyatdagi o'rnini belgilagan, ya'ni tamg'asi yo'q urug'ning jamiyatda ham o'rnini bo'lmagan. Bundaylar to'y-hashamlarda, hatto janglarda ham qatnasha olmagan.

Yeti avlodni bilish an'anasi bizga juda qadim davrlardan meros. Bu tushuncha nafaqat o'zbeklarda, balki turkiy xalqlarning deyarli barchasida mavjud.

Yaqinda etnograf olimimiz Anvar Bo'ronov Mo'g'ulistonga borib, u yerda yashaydigan qozoqlar turmush tarzini o'rgandi. Ularning qabristoniga borganida guvoh bo'libdiki, yetti ajdod narida turgan boboning familiyasi yettinchi avlod vakili qabr lavhigacha bitiladi. Eng asosiysi, ularda har bir kishi yetti ajdodi haqida bilishi shart ekan.

Dostonda beshta avlod tilga olingan. Bular — Dovonbiy, Alpinbiy, Boybo'ri-Boysari, Alpomish va Yodgor. Nega yetti emas, besh avlod? Chunki ezoterik adabiyotlarda ham aytiladiki, har bir tug'ilgan farzandning a'moli o'zidan avvalgi ikki ajdod ta'sirida shakllanadi. Shu o'rinda, o'zidan keyingi ikki avlodga ham ta'sir etadi. Sanoq boshi va adog'idagi ikki avlodning nomi eposda aytilmaydi. Sababi u almashib kelaveradi.

“Pusht” so'zining ma'nosiga kelsak, bu ham ajdodga, ham avlodga taalluqli atama. Xalqimizda bu bilan bog'liq iboralar ko'p. Masalan, “Yeti pushtimga vasiyat qildim”, deyimiz. Bu avlodlar haqida. Yoki “Yeti pushtimning nomi bilan aytmam”, degan iborani ishlatamiz. Bunda gap ajdodlar haqida ketadi.

“Pusht” so'zi fors tilida orqa, yelka, bel kabi lug'aviy ma'nolarni anglatadi. O'zbek tilida urug', avlod, ajdod ma'nosini ifodalaydi.

“Yeti pusht” bizda shunchaki sanoq emas. Rasmiy adabiyotlar oila otadan, onadan hamda farzandan tashkil topadi, deb yozadi. Bizning xalq an'anasiga ko'ra, oila uch bo'g'indan



O'zbek xalqi uchta katta etnik guruhdan tashkil topgan. Bular — qariy, qipchoq hamda o'g'uz. Shulardan faqat qipchoq va o'g'uz etnik guruhlari urug'chilik bo'lgan. Lekin bu an'ana ham turli sharoitlarda o'zgarib, ba'zida davom etgan, ba'zida unutilgan.

Shu o'rinda bizda o'z urug'ining tarixini bilish yaxshi amal hisoblanib kelganini qayd etishimiz kerak. Sababi o'zi va oilasi tarixini bilish inson uchun xalqini anglashga yo'l ochadi. Shuningdek, mavqe orttirish hamda o'zaro munosabatlarda pozitsiyasini belgilashda yordam beradi.

O'zida bor imkoniyatlar hamda variantlar yordamidagina tahlil qila oladi. Mavjud variantlar bo'lmasa, ushbu usul ham “jim qoladi”.

Ikkinchi asosiy jihati esa inson o'zini kim deb atashi bilan bog'liq. Bu o'rinda ham yechim tilga borib taqaladi. Masalan, o'zbek tili ona tili bo'lgan inson o'zbekcha tush ko'radi.

Tushingizda nimalarni ko'rdingiz, qayerlarda bo'ldingiz, qanday insonlar bilan suhbat qurdingiz... Tahlil qilib ko'rsangiz, bular ham xuddi uyug' holatidagidek bir tizimda turganini ko'rasiz.

Xulosa qilib aytganda, inson bu masalada ham o'zini o'zi tahlil qilishi muhim. Tushlari nima deydi, sezgilari nima deydi va kimlarni ko'ngli ko'proq tortadi... Aynan shu jarayonning o'zi ham juda ko'plab savollarga javob bo'lishi mumkin.

— Markaziy Osiyo mintaqasi xalqlari orasida madaniyatlar, urf-odatlarida chambarchaslik yaqqol seziladi. Bu uyg'unlashuv urug', yetti avlodlarni bilish kabi masalalarda ham kuzatiladimi?

— Tariximiz shu paytgacha teskari yozilgan. Bitta misol keltiramiz. Ruslar o'zini hind-yevropa oilasiga mansub deb biladi. Ular mintaqamizdagi aholi bu yerlarda azaldan yashamagan, keyinchalik kelgan, degan tushunchani tasavvurimizga singirdimoqchi bo'ldi va muayyan ma'noda bu maqsadlariga erishdi ham.

Turkiy qabilalar O'rta Osiyoga boshqa joylardan kelgan emas. To'g'ri, ko'chish voqealari bo'lgan, biroq tur'gun yashaydigan joyi Orol dengizi qirg'oqlari, Kaspiy dengizining yuqori qismi, bir

o'rni alohida ajralib turadi. Mahmud Koshg'ariyning bir gapı bor: “Arablar o'zidan boshqa hammani ‘ajam’ deydi. Agar ajamliklar arab tilini o'rgansa ham, bu tilda yaxshi gapirsa ham baribir ajam bo'lib qolaveradi. Turklar esa o'zidan boshqalarni ‘sumlum’ deydi. Lekin u turkiy tilni o'rgansa, uni sumlumlikdan chiqarib, o'zinkidek qabul qiladi”, deydi. Sababi turkiylar ochiq, qabul qiluvchan millat. Chunki uning kuch-qudrati tarix mobaynida yopiqlikka ehtiyoj sezmagani. Bu psixologiya haligacha davom etib kelyapti, desak mubolag'a bo'lmaydi. Tarixga nazar solsak, insoniyat o'tmishida eng ko'p saltanat barpo etgan xalq — turkiylar. Lekin ularning barchasiga tarixan boshqalar ega chiqqan.

Turkiylarning tabiati xalq dostonlarida ham aksini topadi. Masalan, ularning deyarli barchasida qahramonlar boshqa yerni bosib olib, shu yurtdan xotin olib keladi. Boshqa xalqlar dostonlarida buning teskarisi. Ular olib ketilgan ayollarini qaytarib keladi. Bu, albatta, xalqning tabiati eposlarda qanchalik ravshan aks etganini ko'rsatadi, mazkur kuzatish eposshunos Farrux Jabborning kuzatishi va men buni haqli xulosa, deb bilaman.

— O'zbek xalqi 92 urug'dan tashkil topgani aytiladi. Bu urug'larning qanchasi bugungi kungacha saqlanib qolgan? Aynan urug'larga bo'linish an'anasining ahamiyati susayib borishi qanday jarayonlar bilan bog'liq?

— Avvalo, ta'kidlash kerakki, 92 bovli o'zbek xalqi, degan tushuncha o'zbek xalqining hammasiga taalluqli emas. Bu asosiy etnik guruhlarning barchasida ham aks etmasligi mumkin, lekin ular jam bo'lib, bir asosda birlashadi. Xuddi shunday birlashtirib turuvchi jihatlardan biri ramzlardir. Masalan, xalq qo'shiqlari hududlarda turlicha aytiladi, lekin ulardagi ramzlarning birlashtirib turuvchi ma'nolari yagona.

Misol uchun, olma — muhabbat, ro'mol — oila ramzi. Shu o'rinda 92 bovli urug' tushunchasi ham butun millat sifatida yagona yaxlitlik kasb etadi, desak to'g'ri bo'ladi.

92 bovli o'zbek xalqi, degan tushunchaning ahamiyati susayib borishi esa, shubhasiz, yurimimizda XX asrda boshlangan globalashuv va boshqa qator ijtimoiy-siyosiy jarayonlar bilan bog'liq. Ayniqsa, o'tgan asrning ikkinchi yarmi va yakunida jarayon yanada tezlashdi. Bu davrda xalqlar urug' yoki qabila shaklida emas, butun bir millat, mamlakat sifatida birlashdi.

— Urug' va avlod-ajdod bilan bog'liq tushunchalar ahamiyati saqlanib qoladimi?

— Avlod-ajdod an'analari yangi mazmunda ahamiyatini saqlab qoladi. Avvalo, tarix sifatida. Biz kimmiz, kim bo'lamiz, degan savol javobini tiniqlashtirishda dolzarbligini yo'qotmaydi. Tilda tovush va fe'l turkumi so'zlari qancha sadoqatli bo'lgani kabi tafakkur, til va inson fe'li tabiati ham o'zgaraydi. Ana shu o'zak “umurtqa”ga zarba berilsa, millat yo'q bo'ladi. Shunday ekan, aslimizni saqlab qolishda asl sifatlarimizda yashashimiz kerak. Soyaga aylanmaslik zarur. Bunda til va tafakkurimiz tayanchi genimiz, gen xotiramizdir. Ajdod va avlodlarni yodda tutish bu yo'lida muhim o'rinda ega. Shu ma'noda, avlod-ajdod an'anasiga yangi mazmun bera bilishimiz kerak bo'ladi. Bu esa bugungi avlod zimmasiga burch sanaladi.

“Yangi O'zbekiston” muxbiri Jonibek ALIJONOV suhbatlashdi.



QR-KOD ORQALI VIDEOGA UTING.

Ushbu tartib XIX asrgacha bizning mintaqamizda ham amal qilgan. “Yeti avlodini bilmagan inson — qul” iborasi paydo bo'lishi boisi ham shu.

Yeti ajdodni bilish nima uchun kerak bo'lgan? Sababi shundaki, aynan shu ma'lumotlar o'zaro quda-andachilikda, yangi tug'ilgan chaqaloqqa ism berishda hamda marhumlarni dafn etishda juda muhim hisoblangan.

Nega aynan yetti raqami tanlangan, degan savol tug'iladi. Azaldan tariximizda muqaddas raqamlar bo'lgan. Masalan, 3, 7, 40 va hokazo. Butun sanoqlar ana shu an'anaviy raqamlarda yopiladi. Buning o'ziga yarasha asoslari bor va bu alohida mavzu.

Shuningdek, yetti avlod o'rtasidagi qarindoshlik rutbalarining o'z nomi bo'lgan. Masalan, Xorazmda shu nomlashning turkiycha — aka, bola, oqtiq, chovliq, yovliq, yotliq atamali saqlanib qolgan. Boshqa hududlarda esa ota, o'g'ildan boshqa sanoq tartibi arabcha — nevara, chevara, evara, duvara, abira va kabiraga o'zgartirilgan. Kabiradan keyin begona bo'ladi, deyilgan. Sababi, yettinchi avloddan keyin qon butunlay yangilanadi. Bu eposlarimizda, jumladan, “Alpomish” dostonida ham o'z aksini topadi.

iborat bo'lgan. Birinchi bo'g'in kattalar, ya'ni bobo, buvi, amaki, tog'a, xola va ammalar. Ikkinchisi — ota-ona, uchinchisi — farzandlar.

Tarbiya kattalar tomonidan berilgan. Butun oila tarixi, an'analarni bolalarga kattalar o'rgatgan. Ota-ona esa ularni boqish bilan shug'ullangan. Bugungi kunda ayni zanjimning uzilgani uchun tarbiya bilan kim shug'ullanishi kerak, bog'chami, maktabmi, degan tortishuvlar kelib chiqmoqda.

Aslida, aynan ana shu tartiblarning tiklanishi bu muammolarga yechim bo'lardi, deb hisoblaymiz. Eng muhimi, shu bilan yetti avlod tushunchasining mohiyatini saqlashga erishish mumkin.

— Urug'ni bilish asida, nima uchun muhim? Bu millatning birligida, ahilligida qanchalik ahamiyat kasb etadi?

— Avvallari urug'ni bilish, uni avlodlarga yetkazish amaliyotda kerak edi. Chunki busiz inson jamiyatda o'rnini, mavqei topa olmasdi. Hozirgi globalashuv davrida bunga ehtiyoj sezilmayapti.

Kishi urug'ining tarixini bilgani yaxshi, lekin bu omil urug'chilikka sabab bo'lmasligi kerak.

“Yeti avlod o'rtasidagi qarindoshlik rutbalarining o'z nomi bo'lgan. Masalan, Xorazmda shu nomlashning turkiycha — aka, bola, oqtiq, chovliq, yovliq, yotliq atamali saqlanib qolgan. Boshqa hududlarda esa ota, o'g'ildan boshqa sanoq tartibi arabcha — nevara, chevara, evara, duvara, abira va kabiraga o'zgartirilgan. Kabiradan keyin begona bo'ladi, deyilgan. Sababi, yettinchi avloddan keyin qon butunlay yangilanadi. Bu eposlarimizda, jumladan, “Alpomish” dostonida ham o'z aksini topadi.

Ushbu masalalarda ham tibbiyot bugungi kunda ancha yuqori natijalarga erishib ulgirdi. Bugun siz o'z gen tahlilingiz orqali ko'plab ma'lumotlarga ega bo'lishingiz mumkin.

Aynan urug' tushunchasi millatning asosini tashkil etadi, degan qarashga bormaslik kerak. Bugungi kunda millatni millat sifatida ko'rsatadigan boshqa omillar ham dolzarb bo'lib bormoqda. Ulardan biri — til. Boisi, til bo'lmasa, tafakkur bo'lmasa, millat o'lgan hisoblanadi.

Til shunday tarixiy jarayonki, unda atigi bitta inson so'zlasha ham bu tilni o'lgan, deb bo'lmaydi. Uni qayta tiriltirish, rivojlantirishning chorasi bo'ladi.

Muhimi, boshqa tillardan qabul qilinayotgan so'zlarga til moslashtirish kerak, balki o'sha so'zlarni ona tilimiz qonunlariga, tartibiga moslashtirish kerak. Mana, masalan, “pusht” degan so'zni X asrda ajdodlarimiz qanday ma'noda qo'llaganini bilmaymiz.

Aynan, tilning saqlanishi so'z yuritayotganimiz — avlodlarni bilish an'anasining saqlanishida muhim omillardan biridir.

— Bugungi kunda ba'zi insonlar o'zining yetti avlodi haqida to'liq ma'lumotga ega emas. Buni qanday aniqlash mumkin?

— Aniqlashning bugungi kundagi yagona yo'li — gen tahlili. Lekin u ham



Chunki millat qaysi tilda tafakkur qilsa, tushi ham shu til bilan bog'liq bo'ladi. Mazkur jarayon tasvirlangan bir kino ham bor. Unda rus millatiga mansub razvedkachi ayol nemislar orasida ishlaydi. U umuman rus tilida gapirmagan, biroq tug'ish jarayonida o'zi bilmagan holatda “mama” deb yuboradi. Axir uning tili rus tilida chiqqan edi-da.

Yana bir tatar kishi o'zbekcha yozar, o'zbek tilida so'zlashar edi. Kasal bo'lgan paytida tatar tilida gapirar ekan. Bu ham insonning ruhiy mexanizmlari bilan bog'liq jarayondir.

tomonlari Balxash, Tyanshangacha bo'lgan hududlar hisoblangan.

Aynan shu chegara hududlarida yashagan aholi orasida ham “qorajonlar” hamisha bo'lgan. Aynan shu qorajon — chegaradagi toifa turkiylarda ham, forsiylarda ham, arab va xitoylar, ruslar, umuman, yonma-yon yashayotgan barcha xalqlarda bo'lgan. Bu aralashgan qatlam borki, ularning o'zini kim deb bilishi ko'p masalalar yechimi topilishida muhim o'rin tutgan. Bu holatni juda ham qiziq jarayonlar yuzaga keltiradi. Bu jarayon yechimida har bir millat genidagi bobomeros mentalitetning

“Yangi O'zbekiston” va “Правда Востока” gazetalarini tahririyati DUK

MUASSIS:  
O'zbekiston Respublikasi  
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:  
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.  
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas'ul.  
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.  
Nashr indeksi — 236. Buyurtma G-1146.  
43313 nusxada bosildi.

Hajmi — 3 taqoq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Navbachi muharrir: Feruza Jo'rayeva  
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzili: 100029,  
Toshkent shahri,  
Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy

Topshirildi — 00:00